

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

**O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI KAFEDRASI**



“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani v/b
_____ f.f.n. Sh.Haydarov
“ _____ ” _____ 2013 y.

5141100-o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

**“So‘zlashuv nutqi o‘ziga xos nutqiy
sistema ekanligi”**
mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Toshbekova Feruza
Ilmiy rahbar: dots. Tursunpo‘latov M.
Taqrizchi: katta o‘qituvchi Ibragimova L.

BMI O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI kafedrasi yig‘ilishining qarori bilan (Qaror №10.
7.05.2013). Himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri p.f.n. Q.Yadgarov. _____
(imzo)

Jizzax-2013

Mavzu: “So‘zlashuv nutqi o‘ziga xos nutqiy sistema ekanligi”

Reja

Kirish

I bob. So‘zlashuv nutqi tushunchasi.

- 1.1. So‘zlashuv nutqi maxsus tayyorgarliksiz yuzaga keluvchi nutq ekanligi.;
- 1.2. So‘zlashuv nutqi bevosita yuzma yuz nutq
- 1.3. So‘zlashuv nutqi hodisasining o‘rganilishi
- 1.4. So‘zlashuv nutqi hodisasining o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi

II bob. So‘zlashuv nutqi o‘ziga xos nutqiy sistema.

- 2.1. So‘zlashuv nutqi sistemasi –adabiy so‘zlashuv nutqi sifatida
- 2.2. So‘zlashuv nutqi sistemasi tushunchasini o‘tish uslubiyati

III bob. So‘zlashuv uslubini o‘tish masalasi

- 3.1. So‘zlashuv uslubini o‘tish uslubiyati yuzasidan birinchi dars ishlanmasi
- 3.2. Ikkinchi dars ishlanmasi

Umumiy xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi

So‘zlashuv nutqi iborasi o‘tgan asrning elliginchi yillaridan e’tiboran o‘rganila boshlangan. O‘zbek tilshunosligida bu soha bilan rasman shug‘ullanish 1970-yillardan boshlangan.

“So‘zlashuv nutqi” deb yuritilayotgan lingvistik hodisa kundalik turmushda, kishilarning o‘zaro aloqa jarayonlarida amal qiluvchi nutqiy hodisadir.

So‘zlashuv nutqining asosiy mohiyati unga xos bo‘lmagan lingvistik belgilar, mezonlar, sistemalar hali o‘zbek tilshunosligida yetarli o‘rganilmaganligi, bu boradagi turli terminologik chalkashliklarning mavjudligi, so‘zlashuv nutqi o‘ziga xos sistema ekanligi mavzuning dolzarbligini tashkil etadi.

Bugungi kun o‘zbek tilshunoslari oldida hal qilinishi mumkin bo‘lgan qator muammolar mavjuddir. Jumladan, badiiy matn lingvistikasi, badiiy matnning lingvopoetik tahlili, o‘zbek nutqi madaniyati masalasi, o‘zbek so‘zlashuv nutqi madaniyati, o‘zbek terminologiyasi va uning tartiblanishi masalasi, badiiy asar tilida personaj nutqi masalasi va boshqalar.

Bugungi kunda o‘zbek so‘zlashuv nutqi fonetikasi, o‘zbek so‘zlashuv nutqi leksikasi, sintaksisi, o‘zbek so‘zlashuv nutqi o‘ziga xos sistema ekanligi, o‘zbek so‘zlashuv nutqi va uning funksional uslublarga munosabati masalasi, o‘zbek so‘zlashuv nutqi va adabiy til masalasi muammolari bugungi kun o‘zbek tilshunosligida qay darajada o‘rganildi, qay darajada o‘rganilmoqda, degan savolning bo‘lishi tabiiy holdir.

Saksoninchi yillarda o‘zbek tilshunosligida muhim muammolardan biri sifatida ko‘tarilib chiqilgan so‘zlashuv nutqi muammosi qator tilshunolar, jumladan, professor B.O‘rinboyev, E.Begmatov, A.Shomaqsudov, dotsent M.Tursunpo‘latov, S.Usmonov va boshqalar tomonidan bu boradagi qator muammolarning ba’zilari o‘z yechimini topdi, ba’zilari o‘z yechimini hamon

topgani yo‘q. Ana shunday muammolardan biri so‘zlashuv nutqi o‘ziga xos nutqiy sistema ekanligidir.

So‘zlashuv nutqi, o‘zbek nutqining ichki va tashqi hodisalari, badiiy nutq hodisasi, ilmiy nutq, rasmiy nutq, maktubiy uslublar nutqi so‘zlashuv nutqi va adabiy nutq, radio va televedeniye nutqini, tilshunoslikning bugungi kun muammolaridan biri sifatida har tomonlama o‘rganish muhim ahamiyatga egadir.

Shuni e‘tiborga olgan holda biz bitiruv ishimizda so‘zlashuv nutqi tushunchasi masalasini, adabiy til va so‘zlashuv nutqi va badiiy til uslublar borasida tilshunoslikda bayon etilgan va bayon etilayotgan mulohazalar asosida yoritib berishga harakat qilamiz.

So‘zlashuv nutqi qanday hodisa? Ushbu savolga javob berish uchun bir qator nazariy va ilmiy adabiyotlarni ko‘zdan kechirdik. Shu tufayli ham so‘zlashuv nutqi deb yurituvchi hodisani nutqni shakl va turlari, nutqni uslubiy ko‘rinishlari, sosial tomonlari, adabiy til normasiga munosabati masalasini, uning asosiy belgilari va mezonlarini yoritish muhim ahamiyatga ega degan xulosaga keldik. Yuqoridagi masalalarni kengroq o‘rganish, yaxshiroq anglash uning muhim lingvistik va nolingvistik xususiyatlarini belgilash imkonini beradi. Ushbu bitiruv ishimizda yuqorida qayd etilganlarga aloqador bo‘lgan masalalarga o‘z mulohazalarimizni bildiramiz.

O‘zbek tilshunosligining hozirgi kamoloti uning o‘zbek milliy tili grammatik strukturasini, leksikasi va fonetikasini orfografiyasi va orfoepiyasini, leksikografiyasini chuqur ilmiy asosda o‘rganish tufayli erishilgan yutuqlardir. Umuman olganda, o‘tgan davrlar ichida o‘zbek adabiy tilining, shuningdek, sheva va dialektlarni fonetikasi, morfologiyasi sintaksisi, shuningdek imlosi, grafikasi, orfografiyasini o‘rganish bo‘yicha mukammal ishlar amalga oshirildi. Bu kabi ilmiy tadqiqotlar o‘zbek adabiy tilini lingvistik xususiyatlarini ochish va ilmiy umumlashtirishga ulkan hissa qo‘shish bilan birga o‘zbek nutqi madaniyatini rivojiga ham muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. O‘zbek tili fanining rivoji va takomilini xalq ta’limining yangi qonunlari “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bilan bog‘lash mumkin. Chunki tilshunoslikda olib borilgan muhim tadqiqotlarning samarali

ta'siri ayniqsa, tilning alfaviti, grafikasi, imlosi, morfologik, leksik, sintaktik, fonetik formulalarining shakllanishida yorqin ko'rinadi.

Keyingi yillarga qadar o'zbek tilshunosligida barcha qardosh tillar tilshunosligida bo'lgani kabi, asosan tilning strukturasini, ya'ni til sistemasini tadqiq qilishga katta e'tibor qilindi. Shu tufayli ham shu kunga qadar o'zbek tilini morfologik, sintaktik strukturasini, adabiy normasi masalasi hozirgi kunda ancha yaxshi o'rganilgan.

Ma'lumki, til nutqda moddiy bazaga, real kuchga aylanadi va kishilarning aloqa quroli vazifasini bajaradi. Demakki, til aloqa materiali bo'lsa nutq aloqa vositasidir.

Shuning uchun ham nazariy adabiyotlarda tilni til, ya'ni material sifatida emas, nutqiy jarayon sifatida o'rganish tilni jonli, hayotiy o'rganish lozimligi qayd etilmoqda. Shu kunga qadar o'zbek tilshunosligida nutqning o'ziga, ya'ni o'zbek nutqining o'zi maxsus hodisa, maxsus kategoriya sifatida o'rganilganicha yo'q. Bunda nutq va til, nutqning muhim lingvistik bo'lmagan tomonlari, o'zbek nutqining tiplari, nutq stillari, ichki va tashqi nutq, nutqning lingvistik, psixologik, mantiqiy, estetik, etikaviy tomonlari, ularning o'zaro munosabatlari, so'zlashuv nutqining asosiy belgilari, mezonlari kabi tomonlari to'la ravishda tadqiq qilinmagan.

Mavzuning tanlanishi

Yuqorida qayd etilganidek, o'zbek nutqining o'zi maxsus hodisa, o'ziga xos maxsus kategoriya ekanligi o'zbek nutqining ichki va tashqi tomonlari, o'zbek nutqining asosiy belgilari va mezonlari, o'zbek nutqining funksional uslublarga munosabati, shaharliklarning kundalik so'zlashuv nutqi ("городское бытовая речь") masalasi, so'zlashuv nutqi va adabiy til masalasi, so'zlashuv nutqi o'ziga xos nutqiy sistema ekanligi masalalari ham o'rganilmagan sohalardan biri ekanligini e'tiborga olingan holda bitiruv malakaviy ishimizga ushbu mavzuni tanladik.

Bizning bitiruv ishimizda ushbu mavzuni tanlashimizning asosiy sababi ham yuqorida qayd etilgan masalalar bo'lsa, ikkinchidan, dars jarayonida so'zlashuv uslubi, adabiy uslub, rasmiy uslub, ilmiy uslub tushunchalarini o'quvchilarga farqlab berish, bu uslublarni o'ziga xos tomonlarini aniqlashdan iboratdir.

Ma'lumki, nutq yakka tarzda yuzaga keladi, uni ayrim bir kishi amalga oshiradi. Nutq turmush sharoitida, aloqa jarayonida yuzaga keladi. Biroq bu yakka shaxsga xoslik umumtil sistemasi qonuniyatlariga tayanadi va uning doirasida bo'lib uni buzmaydi. Til hayotda yakka nutq tarzida yuz bersada, tilda birgina kishi emas, ko'pchilik kishi gaplashadi.

Mavzuning maqsadi va vazifasi

Ushbu malakaviy bitiruv ishining birinchi vazifasi "So'zlashuv hodisasi nima?" deyilgan savolga javob berish, ikkinchidan, so'zlashuv nutqi hodisasining o'zbek, rus tilshunosligida o'rganilishini tahlil etish, uchinchidan, so'zlashuv nutqi va adabiy til tushunchalarini tahlil etish, so'zlashuv nutqi sistemasiga nimalar kirishini aniqlashdir.

Ma'lumki, so'zlashuv nutqi hodisasi yuzasidagi keyingi yillarda bir qator ishlar e'lon qilingan. Ishning yana bir maqsadi ushbu ishlarning tahlil qilish va so'zlashuv nutqining til sistemasida tutgan o'rnini ko'rsatib berishdan iboratdir.

Ishning amaliy tomoni

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizning amaliy tomoni shundan iboratki, so'zlashuv nutqi hodisasini bilish, dialogik nutq, dialektal nutq, adabiy til, badiiy til masalasi bilan shug'ullanuvchilar, nutq uslublari bilan shug'ullanuvchilar uchun amaliy, ilmiy jihatdan foyda berishi mumkin.

Hozirgi kunda so'zlashuv nutqi, og'zaki nutq, xalq jonli nutqi, kundalik turmush nutqi kabi terminologik chalkashliklar mavjud. Ushbu chalkashliklarni to'g'ri hal etishda ham ushbu ishdan foydalanish mumkin.

So'zlashuv nutqi borasida bir qator ishlar qilingan. Jumladan "So'zlashuv nutqi leksikasi", "Badiiy asar tilida so'zlashuv nutqi elementlarining qo'llanilishi", "So'zlashuv nutqida tabu va evfemizlarning qo'llanilishi" va boshqalar.

Ushbu ishimizning yuqoridagilardan farqli tomoni ishda so‘zlashuv nutqi sistemasi tushunchasi tahlil etiladi.

Ishda yoritiladigan masalalar

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda quyidagilarni yoritishga harakat qildik:

- so‘zlashuv nutqi tushunchasi haqida;
- so‘zlashuv nutqi hodisasining rus tilshunosligida o‘rganilishi;
- so‘zlashuv nutqi hodisasining o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi;
- so‘zlashuv nutqi o‘ziga xos nutqiy sistema ekanligi;
- so‘zlashuv nutqi –adabiy so‘zlashuv nutqi sifatida;
- so‘zlashuv nutqining “kundalik turmush” nutqi tushunchasiga munosabati va boshqalar

Ishning ishlanish darajasi

So‘zlashuv nutqi yuzasidan qator rus tilshunoslari O.B.Sirotnina, V.I.Sobinnikova, A.Zemskaya, O.A.Yakubovskiy, V.G.Kostamorov, T.Q.Vinokurlar, o‘zbek tilshunoslaridan B.O‘rinboyev, E.Begmatov, S.M.Xoldorova, A.Hazratqulov, M.To‘rsunpo‘latov kabilar tomonidan so‘zlashuv nutqi sintaksisi, so‘zlashuv nutqi leksikasi, so‘zlashuv nutqi dialogik nutq ekanligi, A.Shomaqsudov tomonidan so‘zlashuv nutqi uslubi o‘rganilgan.

Biz bitiruv malakaviy ishimizda ulardan farqli holda so‘zlashuv nutqining asosiy belgilarini, so‘zlashuv nutqi o‘ziga xos nutqiy sistema ekanligini yoritishga harakat qildik.

Shu jihati bilan bitiruv malakaviy ishimiz yuqoridagi ishlardan farqlanadi. Ish yuzasidan Jizzax shahardagi maktabda til va adabiyot o‘qituvchilari seminarlarida va talabalarning ilmiy nazariy konferensiyalarida ma’ruza qilingan.

Tadqiqotning obykti va predmeti.

Tadqiqotning obykti so‘zlashuv nutqi sistema ekanligi. Uning predmeti so‘zlashuv nutqi sistemasini aniqlash va funksional uslublarga munosabati tushunchasini aniqlashdir. Tadqiqotni amalga oshirishda rus tilshunoslari O.B.Sirotnina, A.Zemskaya, G.Galovin, o‘zbek tilshunoslaridan B.O‘rinboyev,

E.Begmatov, M.To‘rsunpo‘latovlarning so‘zlashuv nutqi borasida amalga oshirgan ishlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning asosiy ob‘yekti badiiy asardagi so‘zlashuv nutqi elementlaridir.

Ishning e‘lon qilinishi

Ushbu mavzumiz yuzasidan 2011-2012, 2012-2013-o‘quv yili JDPI talabalarining ilmiy nazariy konferensiyalarida ma’ruza qilindi. Litseylarning yuqori sinflarida “Nutq madaniyati”, (Badiiy, so‘zlashuv, publitsistik uslublar) darsini o‘tish jarayonida mavzu yuzasidan ochiq darslar tashkil etildi.

I bob

So‘zlashuv nutqi tushunchasi

“So‘zlashuv nutqi” deb yuritilayotgan lingvistik hodisa kundalik turmushda, kishilarning o‘zaro aloqa jarayonlarida amal qiluvchi nutqiy jarayondir. So‘zlashuv nutqi tilshunoslarning ishlarida qayd etilishicha, birinchi navbatda dialogik, monologik nutq ko‘rinishlari shaklida yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lgan yetakchi nutqiy shakl birdan ortiq, ya’ni ikki yoki undan ortiq kishilarning o‘zaro so‘zlashuvi, fikr olishuvlarida yuzaga keluvchi holatdir. Demakki, so‘zlashuv nutqi uchun yetakchi nutqiy forma dialogdir.

Masalan, Toshtemir aka sapchib o‘rnidan turib ketdi:

-U v v, namuncha o‘zingni taroziga solib qolding!

-So‘radim-da

-So‘rama! Bu yog‘i bilan ishing bo‘lmasin. Sen ham sinov-pinovdan o‘tib ol-chi? Qolgani bir gap bo‘lar(Luqmon Burxon. “Xizir ko‘rgan yigit”²¹-b.)

So‘zlashuv nutqi atamasi tilshunoslikda yetarli ravishda aniqlanmaganligi, buni tushuntirish borasida uchrovchi turli-tumanliklarda ham yorqin ko‘rinadi. So‘zlashuv nutqi atamasining bir qancha ko‘rinishlarda: dialogik nutq, adabiy tilning og‘zaki shakli, og‘zaki nutq, xalq jonli tili, dialektal nutq, kundalik turmush nutqi va boshqalar. Bu sohada qo‘llanayotgan atamalarning yetarli holatda aniqlanmaganligi turli chalkashliklarni yuzaga kelishiga sabab bo‘layotganligini B.O‘rinboyev, E.Begmatovlar ham qayd etadilar¹.

Masalan:

Shakar. O‘rgilay, xolajon! Shoshmang, yuragingizni bir ushlab ko‘ray.

Kimyo. Aylanay, yurak qolibdimi? Qizim Nurxonning dardida kuyib, kulparcha bo‘lganman.

Qunduz. Mana, xolajon, sog‘inganingizni butun ko‘rasiz. Yuragingiz yana joyiga tushib qolar.

¹ O‘rinboyev B, Begmatov E. “O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari”. Samarqand, 1973, 4-5-betlar.

Kimyo. Iloho aytganingiz kelsin, Qunduzxon!

Xolcha. Qizim Nurxonni hammadan ko‘ra men sog‘inganman

Nozik. Hammangizdan ham men ortiq sog‘inganman.

Shakar. Hammangiz ham sog‘ingansizlar

Kimyo. Aylanay Xolchaxon, xamirim oshib qolmasin. Men patirimni yopib
ola qolay. Bu yerlarni o‘zingiz saramjonlarsiz...

Xolcha. Mayli, aylanay, siz u yoqdagi ishlaringizni qilavering.

Kimyo. Yuringlar, qizlar, osh-suvga qarashib yuborasizlar.

Shakar. Xo‘p bo‘ladi, ayajon(“Nurxon”)

Nutqdagi norasmiylik, undagi talaffuz, intonasiyadagi sokinlik, bir
me’yordalikni ta’minlaydi. Fonetik, leksik, morfologik stilistik elementlarning
oddiy so‘zlashuv tiliga xos shakllarda bo‘lishiga asos bo‘ladi.

1.1. So‘zlashuv nutqi maxsus tayyorgarliksiz yuzaga keluvchi nutq ekanligi

Til va nutqning yozma shakllarida yoki yozib o‘qib berilgan holatlarda
so‘zlovchi yoki yozuvchi shaxs ma’lum tayyorgarlik ko‘rishga, o‘ylashga, gap
so‘zlarni qayta o‘ylab ko‘rish va o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning
uchun unda vaqt ham, imkoniyat ham mavjuddir. Bunday nutqlarni hatto
so‘zlovchi va yozuvchidan tashqaridagi kishilar ham qarab chiqishi, qayta ko‘rishi,
lozim bo‘lgan o‘rinlarni to‘g‘irlashi mumkin.

Og‘zaki so‘zlashuv nutqi esa maxsus tayyorgarliksiz, ma’lum sharoit va
situasiyada so‘zlovchi yoki so‘zlovchilar ixtiyorida nutq, nutqdagi so‘z va iboralar,
gapning tuzilishi, tanlanishi yuzasidan o‘ylab o‘tirishning imkoniyati yo‘q.
Fikrimizni isboti uchun quyidagi parchani keltiramiz:

G‘ani. Yana, yolg‘on gapirasiz-da.

Zebo. Voy, anovi kishini, ishonmaydi-ya

G‘ani. Bo‘lmasa nega qumga tushgan tangaday ko‘rinmay ketdingiz?

Zebo. Ko‘rinayapman-ku, ko‘zim tegdi, chog‘i

G‘ani. Quralay ko‘z, pirt uchiradi kishini puchug‘im.

Zebo. Puchuq demang! Boring-e...

G'ani. Mushuk bosgan chuchvaraday burningiz bor.

Zebo. Ajab bo'пти!

G'ani. Buyra-buyra qo'ng'ir sochlaringizdan o'zim aylanay.

Zebo. Muncha ko'p kulavermang. Necha qop, necha toy bo'ldi?

G'ani (og'zi to'la non) oltmish toy gazlama, yuz qop shakar. To'yni qachon qilamiz?

Zebo. Yana uch qovun pishig'i bor.

G'ani. Uhu, ungacha o'zimizni palagimiz o'lib, qovun qoqi bo'b ketar ekanmiz-da.

Yuqorida keltirilgan kichkina, bir onlik suhbatning o'zida suhbatdoshlarning o'zaro sevgi, muhabbat munosabatlari, o'zlarining ijtimoiy ahvoli, o'zgalarning turmush tarzi haqidagi ma'lumotga ega bo'lamiz. Suhbat chog'ida undagi gap qurilishlari, sintaktik konstruksiyalar emosional jarayonlar tez-tez almashinib turadi. Gaplarda darak va xitob, talab va buyruq, iltijo va savol, mamnunlik va hazil jarayonlar bir-biri bilan tez-tez almashinib turadi. Bularning hammasi hech bir tayyorgarliksiz, odatiy nutqiy malaka bilan ifodalangan.

So'zlashuv nutqidagi tabiiylik va oddiylik unda maxsus tayyorgarlikning yo'qligi ushbu nutq tilidagi lingvistik strukturaga ko'ra suniylik holatining yo'qligi yoki juda kamligini ta'minlaydi. Nutq tashqi ta'sir, suniy turtki orqali emas, balki tabiiy manbadan yuzaga keladi. So'zlashuv nutqining ichki qonuniyat asosida yuzaga kelishi norasmiylik odatiyligini ta'minlaydi. So'zlashuv nutqining tayyorgarliksiz, ya'ni aslida uning bevosita muomala jarayoni ekanligidir.

1.2. So'zlashuv nutqi bevosita, yuzma-yuz nutq

So'zlashuv nutqi kundalik hayotimizda amal qiluvchi nutq ekan uning turlari, ko'rinishlari, qo'lanishi, ishlatilish doirasi jihatidan kengdir. So'zlashuv nutqining ana shunday ko'rinishlaridan biri so'zlashuv nutqining yuzma-yuzligidir.

Har qanday nutq ham kimgadir, ikkinchi bir shaxsga suhbatdoshga qaratilgan bo'ladi. Yozma nutq kitobxonga, xalq ommasiga, radio va televedeniye

nutqi tinglovchiga va tomoshabinga, ma'ruza nutqi zalida to'planganlarga qaratilgan bo'ladi. Ammo tinglovchi bilan eng yaqin munosabatda bo'luvchi suxandon nutqida tinglovchi, ya'ni ikkinchi suhbatdosh aralashmaydi, tinglovchi axborotlarni qabul qiluvchi uning axborotlarini muxokama qiluvchi sifatida qoladi. So'zlashuv nutqi keltirilgan nutqdan ko'rinishlaridan o'zining eng muhim xususiyati, ya'ni bevositaligi bilan farqlanib turadi. So'zlashuv nutqidagi bevositalilik ma'lum vaziyat yoki sharoitlarda so'zlayotgan shaxslarning birdan ortiq bo'lishi. Ularning o'zaro so'zlashayotgan bo'lishlari, har bir suhbatdoshning nutqi bevosita yuzma-yuz sharoitda bo'lishini ko'zda tutadi. So'zlashuv nutqi shaxslarning bevosita yuzma-yuz suhbatlari so'zlashuvlari asosidagi nutqdir. Bevositalilik so'zlashuv nutqi uchun lozim bo'lgan barcha holatlarni yuzaga keltiradi.

So'zlashuv nutqining bevositaligi va suhbatdoshlarning yakkama-yakka ishtiroki ushbu nutqning dialogik shaklda bo'lishini, so'zlovchilarning suhbat chog'ida xabar va fikrni ifodalash uchun nolingvistik vaziyatlarning bolishi:

-imo-ishoralar;

-mimika turlaridan foydalanish;

-to'rtli vaziyatlarni yuzaga keltirishni va ulardan foydalanishni taqozo etadi.

Bunday yordamchi vositalar dramatik asarlarda yozuvchilarning maxsus qisqartirishlarida o'z ifodasini topadi. Chunonchi qavs ichida beriladi, kulib, xo'rsinib, ko'zlari chapaqlab, yig'lab, g'azablanib, o'ksinib, itarib, javdirab, gerdayib, qovog'i soliq, tumtayib kabi.

So'zlashuv nutqining bevositaligi uning jonliligi va abadiyligidir. Masalan: Bisyor, xo'b, bisyor xo'b!-dedi. Vafo attor –unga Zaynishuv, bu norasidaning qulog'iga azoni Rasul aytildimi?

-Yo'q!-dedi Bashirxon

-Voy-voy!-dedi Vafo attor afsus bilan-A'zoni Rasulni har bir musulmon farzandi qulog'iga ba'diz tavallud uch kun o'tgan, aytmoq joizdir... orqada titrabroq turgan Zevarxon sekin ovoz berdi:

-Azon aytilgan, -dedi ijirg'anib-Mullo Rahim bobo aytgan edilar.

A, bu mirishkorlik mullo Rahmatmi?! –dedi Vafo attor kayfsizlanib, -hm... ha, mayli, bisyor xub, bisyor xub...

-Gap mundoq, o'rtoq Zaynishev uka! –dedi. Vafo attor mitti ko'zlarini yaltiratib, ingichka bo'ynini Bashirxon tomon cho'zib –Bizdi eshshak...

-Labbay!

-Bizdi eshshak, -dedi Vafo attor ovozigina nimgina tus berib, -o'sha, ana bu kelinposhsho ustidan sakraganlari eshshak jonivor! ... –Bashirxonning qo'lidagi adikalanning tushib ketishiga sal qoldi. Zevarxon uyalganicha yerga qaradi. . Attor mijg'ovlanib so'zida davom etdi. –O'shal qari badbaxt yengil bo'ldi. Lokigin kurraasi mayib va nogirondir... (N.Aminov "Yolg'onchi farishta")

a) So'zlashuv nutqi erkin betakalluf nutq ekanligi

So'zlashuv nutqi suhbatdoshlarning erkin turib, erkin so'zlashuvlariga asoslanadi. Odatda bunday suhbat chog'ida rasmiylik, suniylikda, ongli ravishdagi jimjimadorlikka o'rin bo'lmaydi. Shu sababli so'zlashuv nutqidagi betakalluflik, erkinlik kundalik turmush nutqidagi tabiiy xususiyatni, erkin holatning aks etishidir. So'zlashuv nutqidagi betakalluflik, undagi norasmiylik bilan qo'shilib ketadi. Suhbatdoshlar o'zlarini erkin kundalik odatiy tillarida fikrlashadilar, mushohada yuritadilar. Quyidagi parchaga e'tibor beraylik.

Boy. Ko'zlaring qizargan?

Gulbahor. Shunday, o'zim.

Boy. Yig'ladingmi?

Gulbahor. Yo'q (ko'ziga jiqqa yosh oldi)

Xonzoda. Xojionam biroz koyib berdilar.

Boy. Nima deb, koyadi onam.

Gulbahor. Yo'q! Xojionam koyisalar axir, onam haqlari bor.

-Men nima qilay?! –dedi Bashirjon dag'g'-dag' titrab, o'zini eshik pardasi bilan to'sar ekan. E xudoyim –ey!

-Kiraveraymi?

-Uyda singlim bor! Deb pichirladi Qirmizxon

-Yolg'on, kiray...

-Rasvo bo'lasiz, keting!

Keltirilganlardan ko'rinadiki, so'zlashuv nutqini ana shu odatiy so'zlashuv tashkil etadi. Shu sababli ham betakalluflik, erkinlik, bimalol suhbatlashish so'zlashuv nutqi uchun xos bo'lgan belgilardan biri hisoblanadi.

b) So'zlashuv nutqi-dialogik nutq ekanligi

Tishunoslar ko'proq mulohazalar bildirgan, shuning uchun ham Kojennikova, Kodixovalarning mulohazalarini ishimizga asos qilib oldik.

1. So'zlashuv nutqi-dialogik (ya'ni ikki shaxsning o'zaro munosabatlaridan kelib chiquvchi) nutq ekanligi.

2. So'zlashuv nutqi norasmiy nutq ekanligi.

3. So'zlashuv nutqi bevosita yuzma-yuz nutq ekanligi.

4. So'zlashuv nutqi erkin, betakalluf nutq ekanligi.

5. So'zlashuv nutqi situativ, ya'ni bevosita vaziyatga qarab yo'nalishni o'zgartiruvchi, vaziyatbob nutq ekanligi.

6. So'zlashuv nutqi maxsus tayyorgarliksiz so'zlashuvchi nutq ekanligi.

7. So'zlashuv nutqi barcha uchun barobar nutq ekanligi va boshqalar.

Keltirilgan ushbu belgilarning ahamiyati haqida o'rganuvchilarning mulohazalari ham bir xil bo'lmay, turli tumandir. Biz masalaning ushbu tomonlarini e'tiborga olib so'zlashuv nutqiga xos ushbu belgilarning ayrimlari haqida o'z mulohazalarimizni boyon etdik.

So'zlashuv nutqi uchun har qanday nutqiy forma xarakterlidir. Dialogik nutq tuzilishining asosiy ko'rinishlaridan bir ikki kishining o'zaro savol-javobi sosial nutq aloqalarining tabiiy ko'rinishlari hisoblanadi. Dialogik nutqiy ko'rinish bir-biri bilan almashinib turuvchi replikalarning (luqmalarning) umumiy zanjiriga asoslanadi. Dialogda bitta suhbatdoshning tugashi bilan ikkinchi suhbatdoshning gapi boshlanadi.

So‘zlashuv nutqida dialogik va monologik nutq turlari uchraydi. Ammo monologik nutq so‘zlashuv nutqi uchun belgilovchi xususiyat bo‘la olmaydi. Buning boisi shundaki, so‘zlashuv nutqi o‘z tabiati bilan birdan ortiq shaxslarini erkin suhbatiga asoslangan bo‘lib, bunday holatning chiqishi uchun dialogik forma ko‘proq tabiiy va qulay ekanligidir. So‘zlashuv nutqidagi monologik xolatlar faqat tashqi tomondangina o‘sha formada ko‘rinsa ham aslida ular ham o‘z mohiyatiga, ichki formasiga dialogik xarakterga egadir.

Demak, shunday asoslarga ko‘ra ham so‘zlashuv nutqini dialogik nutqiy forma sifatida o‘rganish tilshunoslikda ancha ilgaridan boshlangan. Jumladan, professor B.O‘rinboyev o‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisiga bag‘ishlangan ishlarida dialogik nutqni o‘rganishni ikki asosiy ko‘rinishini alohida takidlaydi.

O‘zbek tilidagi dialogik nutqni lingvistik xususiyatlarini dastlab A.Hazratqulov o‘rgangan. Uning “Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida dialogik nutq” nomli ishida (1968) o‘zbek dialogik nutqining bir qator masalalari yoritilgan. A.Hazratqulovning ushbu ishidan keyin bu sohani yanada kengroq yorituvchi bir qator ishlar maydonga keldi.

Chunonchi, A.Boboyev va E.Shodmonovning ishlaridir. S.M.Xoldorovanning ishi (1974). Agarki A.Hazratqulov, A.Boboyeva, E.Shirmanov) dialogik nutq va uning xususiyatini o‘zbek tili sintaksisiga xos hodisalardan biri sifatida talqin etgan holda urinsalar. S.M.Xoldorova o‘zbek dialogik nutqi o‘zbek so‘zlashuv nutqining o‘ziga xos belgilaridan biri sifatida o‘rganadi.

So‘zlashuv nutqi dialogik formada dramatik asarlarda o‘z aksini topadi. Shuningdek, prozaik asarlar tilida ham o‘zbek so‘zlashuv nutqi uchun boy materiallar mavjuddir. Masalan: - Qayoqqa bormoqchi bo‘lib safar azm qildilar, - deb so‘radi Mulla Muhammad Salim eshondan.

-Dushanba

-Ko‘p-usul eshon, -lekin avom ularni bilmaydi. Ishtelar sulikidan baxra topib, kashfi kutur-qatorda yetganlarning holini bilish nasib bo‘lgan baxtli odamlargina u tuproqda qanday oltmush yotganligini biladilar.

-Bu faqirning kalilan kulbalarida ham ancha muncha xabari bor.

Keltirilganlardan ko‘rinadiki, badiiy asarlarda so‘zlashuv nutqi elementlarini turli xil ko‘rinishlarini uchratish mumkin.

1.3. So‘zlashuv nutqi hodisasining o‘rganilishi

So‘zlashuv nutqini o‘rganish rus tilshunosligida XIX asrning birinchi yarimidayoq yuzaga kelgan edi. O‘sha davrlarda so‘zlashuv nutqi hodisasi dialektal nutq materiallari asosida o‘rganilgan. O‘sha davrda ko‘pgina tilshunoslar magnit lentalariga yozib olingan dialektal materiallar asosida so‘zlashuv nutqi hodisasini o‘rganganlar. Ammo so‘zlashuv nutqining o‘zi maxsus hodisa, maxsus kategoriya, so‘zlashuv nutqining o‘zi o‘ziga xos sistema, uning badiiy, adabiy, publisiyatik, rasmiy, ilmiy uslublarga munosabati masalasini o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi.

So‘zlashuv nutqi hodisasini o‘rganish kuzatilgan materiallar asosida talqin qiladigan bo‘lsak uch muhim aspektda olib borilganligini ko‘ramiz. Masalan, tilshunos O.B. Sirotinaning qayd etishicha, so‘zlashuv nutqi: 1. Dialektal so‘zlashuv nutqini tekshirish yoki boshqacha aytganda, so‘zlashuv nutqining o‘ziga xos tomonlarini dialektal nutq materiallari asosida o‘rganish; 2. Dialogik nutqni o‘rganish. Bunda adabiy so‘zlashuv tili boshqa nutq hodisasi materiallari asosida o‘rganish; 3. Shaharliklar nutqini, ya’ni shaharliklarning so‘zlashuv nutqini tekshirish. Rus so‘zlashuv nutqini dialektal materiallar asosida o‘rganganlardan tilshunoslar A.B.Shapiro, V.I.Sobinnikova, A.A.Nikolskiy, O.Laptiyevalardir. Keltirilganlardan tashqari so‘zlashuv nutqi hodisasining ilk mohiyatini ochishga bag‘ishlangan ishlar orasida L.P.Yakubinskiyning dialogik nutqni o‘rganishga bag‘ishlangan ishi alohida o‘rin tutadi².

Keyinchalik dialogik nutqni o‘rganishning muhim lingvistik muammolari tilshunoslardan Yu.P.Shvedova, T.G.Vinokur, M.N.Mixlina, I.I.Svyatagor va boshqalar tomonidan reja asosida kengroq o‘rganildi va ilmiy yoritildi.

² Л.П.Якубинский С диалогической речи. Сб. «Русская речь», вып. II., 1923 ва б.

Shahar aholisining soʻzlashuv nutqini oʻrganish ishini tilshunos B.L.Larinning nomi bilan bogʻlaydilar. Shaharliklar nutqini tadqiq qilishning ayrim lingvistik tomonlarini oʻsha davr talablari doirasida tahlil qilishga intilgan edi. Uning keyingi tadqiqotlari asosida Sobinnikova, N.P.Potapov va boshqalarning tadqiqotlarida shaharliklarning kundalik turmush nutqini (горозская просторечие, горозское бытовая речи) oʻrganishga bagʻishlangan qator ishlari yuzaga keldi.

Soʻzlashuv nutqi hodisasi hozirda ham nazariy, ham amaliy tomondan tilshunoslikda keng planda tadqiq qilindi. Bu borada “Норди язык”, “Проблем стилистика”, “Вопроси языкознание” kabi jurnallarda yoritilayotgan bu boradagi mulohazalar fikrimizning isbotidir.

Umuman olganda rus tilshunosligida bu yoʻnalishning oʻz mutaxassis-tilshunoslari mavjuddir. Bular: Ye.A. Zemskaya, O.A.Laptiyeva, L.I.Barinnikova, L.S.Kovtun, N.P.Patapova, O.I.Aleksandrova, T.V. Kochetkova, O.B. Sirotinina va boshqalar.

Ushbu tadqiqodchilarning rus soʻzlashuv nutqi boʻyicha olib borgan kuzatuv ishlari va bu boradagi ilmiy xulosalari turkiy tillar, jumladan, oʻzbek tili soʻzlashuv nutqini ham amaliy, ham ilmiy tomondan oʻrganish uchun ilmiy nazariy baza boʻlib, xizmat qiladi.

Tilshunos T.Vinokurning qayd etishicha, soʻzlashuv nutqi hodisasini yoritishdagi ilmiy chalkashliklardan biri-bu soʻzlashuv nutqini nutqiy jarayonlar bilan bogʻliq holda (funksional uslublar bilan bogʻliq holda) yetarli oʻrganilmaganligidir. Ikkinchidan, soʻzlashuv nutqi deb yuritilayotgan hodisaning oʻzi koʻp qirrali va murakkab hodisa ekanligidadir. Soʻzlashuv nutqi tushunchasining tilshunoslikda yetarli darajada aniqlanganmaganligi bu tushunchani talqin etishda va tahlili borasida uchrovchi terminologik turli-tumanliklardagi izchilsizliklarda ham koʻrish mumkin.

Soʻzlashuv nutqi termini (atamasi) birinchi maʼnoda dialogik nutq, adabiy tilning ogʻzaki shakli, umuman ogʻzaki nutq xalq jonli nutqi, dialektal nutq, kundalik turmush nutqi sifatida ishlatilmoqda. Bundan tashqari tilshunoslikda

so‘zlashuv nutqi og‘zaki nutq, xalq so‘zlashuv nutqi, jonli nutqi, og‘zaki nutq va adabiy tilning og‘zaki shakli kabi chalkash holda qo‘llanilayotgan atamalar barcha tilshunoslik uchun xos hodisadir.

Rus tilshunosligida og‘zaki nutq va so‘zlashuv nutqi tushunchalarining yetarli darajada oydinlashmaganligini tilshunos V.G.Kosmamirov ham ishlarida alohida qayd etgan.

Terminologik chalkashliklar odatda ma’lum tushuncha haqidagi fandagi mulohazalarning yetarli darajada oydinlashmaganligi tufayli yuz berishi aniq. Bu hol bevosita so‘zlashuv nutqi tushunchasiga ham bog‘liqdir.

So‘zlashuv nutqi hodisasining yetarli o‘rganilmaganligi, bu sohaning o‘rganishning muhimligi haqidagi mulohazalarni turkologiyada ham, o‘zbek tilshunosligida ham uchratish mumkin. Bu borada rus tilshunosligida so‘zlashuv nutqi hodisasiga bag‘ishlanib “Русская разговорная речь” to‘plamining tashkil etilishi fikrimizning isbotidir.

Ushbu to‘plamda nafaqat rus tilshunosligida so‘zlashuv nutqi hodisasi, balki turkologiyadagi so‘zlashuv nutqi hodisasiga tegishli bo‘lgan mulohazalar bayon etildi.

Tilshunoslikda qayd etilganlarni umumlashtirib tilshunos O.A.Laptiyeva quyidagilarni bayon etadi: “На базе ееших параметров возникают соответствующие следюше: речь устная; речь письменная; - речь рызговорная – речь книжная, некои- фисировання –речь кодифисированная; речь диалогическая –речь манологическая; речь спонтанная-речь подготовленная; речь адресованная –речь неадресованная; речь непринужденная; –речь отвеественная; речь неофициальная-речь официальная; речь непосредственная-речь опосредственная; речь эмоционально-экспрессивная; речь рациональная; речь автоматизированная-речь свободная; речь ситуативно обусловленная;-речь не зависящая от ситуации; речь-тематически обусловленная-речь не зависящая от ситуации; речь

органическая обиходно-бытовой сферой-реч не зависящая от сферы применения; реч стилистически;- реч стилистически не градуирования”³.

Keltirilganlardan ko‘rinadiki, so‘zlashuv nutqi o‘ziga bir qator lingvistik va ekstra lingvistik xususiyatlarga javob beruvchi nutqiy hodisadir. Chunki so‘zlashuv nutqining yuqoridagi ko‘rinishlari keng xalq ommasining nutq madaniyati va uni yanada jonlantirish muammosi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun ham adabiy - so‘zlashuv nutqi mohiyatini o‘rganish alohida muammolardan (sohalardan) biridir.

So‘zlashuv nutqini rus tili dialektlari bergan materiallari asosida o‘rganish ishida tilshunoslardan A.B.Shapiro, V.N.Sobinnikova, A.A.Nikolskaya, O.A.Laptiyeva va boshqalarning o‘rnini alohida qayd etish mumkin.

So‘zlashuv nutqi hodisasining asl mohiyatini ochishga xizmat qilgan tadqiqot ishlari orasida dialogik nutqni o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarni alohida tilga olish mumkin. Jumladan, A.N.Yakuboyekiy, Yu.Yu.Shvedova, M.P. Mihlina, M.L.Svyatagorlarning ishlari alohida o‘rin tutadi.

Shahar aholisining so‘zlashuv nutqini o‘rganish rus tilshunosi B.A.Larin nomi bilan bog‘liqdir. U shaharliklar nutqini tadqiq qilishning ba’zi lingvistik va sosialogik tomonlarini o‘sha davr talablari doirasida o‘rgandi va tadqiq etadi. Keyinchalik V.I.Sobinnanova, N.P.Patopovalar shaharliklarning oddiy so‘zlashuv nutqini gorodskaya prostorgisna o‘rganishga bag‘ishlangan bir qator ishlarida B.A. Larinning mulohazalarini davom ettirdilar.

Xulosa qilib aytganda so‘zlashuv nutqi jonli, hayotiy va turmush nutqi bo‘lganligi uchun ham unda kishilarning kundalik turmushi, o‘zaro munosabatlari, bundagi ijobiy, salbiy xususiyatlar o‘z ifodasini topishi tabiiydir. So‘zlashuv nutqida so‘zlovchilarning psixik olami, umumiy holati ham mujassamlashgan bo‘ladi. So‘zlashuv nutqida kishilarning bunday holatini ifodalovchi so‘zlar ko‘plab uchraydi. Bunday so‘zlar nazariy va ilmiy adabiyotlarda erkalov-kuchaytiruv so‘zlari deb nomlanadi. Bunday so‘zlarga: buvijon, bo‘talog‘im,

³ Лаптиева О.Н. Русская разговорной синтаксисе. М., 1984.

erkam, do‘ndiqcham, bolaginam, qalqoncha, yulduzcha, ayajon, bibijon, qoqajon, duganajon, o‘rtoqcham, oyimcha, oyimchaxon, dadaxon, jonim, xonim, oppog‘im va boshqalar. Bulardan tashqari –cha, -boy, -loq, -toy kabi qo‘shimchalarni qo‘shish orqali ham erkalov –kichraytuv so‘zlari hosil qilinadi.

Masalan: -Bolaginam, meni tashlab qayoqqa ketayapsan? (R.Fayziy) E, toychog‘im, u zamonlarda odamlar ancha sodda edilar (“Sharq yulduzi” –Qani, ayt-chi, bolakiy, kimsan, qayerliksan, qanday qilib bu yerga kelib qolding? (H.Nazar)

So‘zlashuv nutqiga xos bo‘lgan qon-qarindoshlik atamalarining tasnifi o‘ziga xos ma’nolari haqidagi mulohazalarni L.A.Pokrovskaya, M.Kozimbek, A.G‘.G‘ulomov, I.Ismoilov, B.U.O‘rinboyev, E.Begmatov, A.Inomov, T.Tursunpo‘latovlarning ishlarida uchratamiz.

1.4. So‘zlashuv nutqi hodisasining o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi

So‘zlashuv nutqi qanday hodisa? Uning nutqiy sistemalardagi, nutq uslublaridagi, adabiy til va kundalik nutqiy jarayondagi o‘rni va roli masalalari tilshunoslikda (rus, o‘zbek turkologiyada) turlicha talqin qilingan. Jumladan, professor B.O‘rinboyev o‘zbek so‘zlashuv nutqining sintaktik xususiyatlarini izohlashga bag‘ishlangan doktorlik dissertasion ishida so‘zlashuv nutqiga bag‘ishlangan ishlarni tahlil qilgan holda so‘zlashuv nutqi hodisasini quyidagilarga bo‘ladi:

1. So‘zlashuv nutqi –bu og‘zaki nutq.
2. So‘zlashuv nutqi – ishlanmagan, normalanmagan og‘zaki nutq.
3. So‘zlashuv nutqi adabiy tilning og‘zaki adabiy so‘zlashuv ko‘rinishi.
4. So‘zlashuv nutqi funksional uslub ko‘rinishlaridan biri.
5. So‘zlashuv nutqi adabiy tilning og‘zaki shaklining uslubiy ko‘rinishlaridan biri.
6. So‘zlashuv nutqi nutqiy formalardan biri.
7. So‘zlashuv nutqi nutqiy tiplardan biri.

8. So‘zlashuv nutqi adabiy til bilan xalq so‘zlashuv tili o‘rtasida turuvchi nutq ko‘rinishi.
9. So‘zlashuv nutqi kundalik turmushda amal qiluvchi nutq turi.
10. So‘zlashuv nutqi adabiy tilning og‘zaki shakli bilan mahalliy shevalar orasida turuvchi nutqdir.
11. So‘zlashuv nutqi o‘ziga xos mustaqil sistemadir”⁴.

Biz bitiruv malakaviy ishimizning ikkinchi bobida beshinchi va o‘nbirinchi ko‘rinish haqidagi mulohazalarimizni bayon etamiz.

So‘zlashuv nutqi hodisasini yuqorida qayd etilgan ko‘rinishlarini yoritish ushbu nutqiy sistemaga har bir tadqiqotchining turli tomonlama yondashishi, so‘zlashuv nutqi materiallarini turli nuqtai nazardan tekshirishi yuz bergan holatlar ekanligi tabiiydir.

So‘zlashuv nutqi hodisasini to‘g‘ri talqin qilish, ushbu sistemaning mohiyatini ilmiy yoritish har xilligi jihatidan so‘zlashuv nutqini yuqorida qayd etilgan holatlarda o‘rganishni talab etadi. Masalaning shu tomonini e‘tiborga olib ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirmoq kerak.

Professor B.O‘rinboyev o‘zining bu sohaga bag‘ishlangan bir qator maqolalarida va monografiyalarida so‘zlashuv nutqi sintaksisi haqida qator mulohazalarni bayon etadi⁵.

Tilshunos S.M.Xoldorovanning “Hozirgi zamon o‘zbek tilida dialogik nutqning semantik strukturaviy xususiyatlari” mavzusidagi dissertasion ishida ham dialogik nutqning sintaktik strukturasi masalasi tadqiq etiladi. S.M. Xoldorova o‘z tadqiqotida so‘zlashuv nutqi (“Разговорная речь”) atamasidan keng foydalanadi. Ish muallifi so‘zlashuv nutqini funksional uslub ko‘rinishlaridan biri deb baholaydi. “... разговорный стиль речи-это один из функциональных стилей современного узбекского языка именней особую форму построения-диалогическую. Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda so‘zlashuv nutqining til sistemasidagi o‘rni tadqiqodchi tomonidan quyidagicha belgilanadi.

⁴ O‘rinboyev B. O‘zbek so‘zlashuv nutqi sintaksisi. T., “Fan”, 1974.

⁵ O‘rinboyev B. O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. T., “Fan”, 1974, 11bet.

«Исследования стилей в узбекском языке позволило нам прийти к выводу следующей классификации стилей речи: 1. Научный стиль; Газетно-публицистический стиль, 3. Официально-деловой стиль, 4. Литературно-художественный стиль, 5. Разговорный стиль»⁶.

Soʻzlashuv nutqining oʻzbek tilining uslubiy koʻrinishlaridan biri deb bilgan tilshunos A.Shomaqsudovning bir qator ishlarida ham soʻzlashuv nutqi hodisasi haqida qator mulohazalarni uchratish mumkin.

Maʼlumki, til kishilar oʻrtasidagi vositasi sifatida har qanday sharoitda va ular faoliyatining barcha sohalarida, foydalanishda leksik, frazealogik, grammatik, fonetik vositalarni tanlash va ishlatishning maʼlum farqlari sezilib turadi.

Til vositalarining umumxalq til doirasida bunday tanlab olinishining sababi aloqa qilishning qanday formalari ogʻzaki va yozma formalardan tashqari yana nutqning xilma xil koʻrinishlari ham paydo boʻladi. Nutqning bu xilma-xil koʻrinishlarini nutq stillari nomi bilan yuritiladi.

Tilshunos A.Shomaqsudov oʻzbek tilining nutqiy stillarini tahlil qilar ekan “oʻzbek tili funksional” stillarining qisqacha xarakteristikasi sifatida: Ilmiy-texnik stil ilmiy-ommabop stil, rasmiy-idoraviy stil, ilmiy publisistik stil, soʻzlashuv stillariga toʻxtaladi. Soʻzlashuv uslubining mohiyatini A.Shomaqsudov quyidagicha talqin qiladi: “Soʻzlashuv stili, asosan bevosita kundalik (ogʻzaki) muomala uchun xizmat qiladi.

Soʻzlashuv nutqi ogʻzaki nutqqa qaraganda bir muncha tor tushunchadir. Soʻzlashuv stili ogʻzaki nutqda muhim oʻrin tutishiga qaramay, ogʻzaki nutqdan kelib chiqishiga koʻra kitobiy-yozma manbalarga xos leksiya, doklad, majlislardagi nutqlardan butunlay farqlanadi”⁷.

A.Shomaqsudovning boshqa ishlarida soʻzlashuv stili maxsus yoritiladi. U hozirgi zamon oʻzbek tilining soʻzlashuv stilini ikki turga-adabiy-soʻzlashuv stili va oddiy soʻzlashuv stiliga boʻladi. A.Shomaqsudovning qayd etishicha: “Adabiy

⁶ Xoldorova S.M. Semantika strukturny psobennosti dialogicheskoy rechi v sovremennom uzbekskom yazyki. AKD. T., 1974, 5 bet.

⁷ Shomaqsudov A. Oʻzbek adabiy tili stillari haqida. “Filologik tadqiqotlar” Toshkent., 1976, 22 bet.

so‘zlashuv stili tilning adabiy normalariga mos bo‘lib, tartibga solingan va puxta ishlangan bo‘lishi bilan farqlanadi. U grammatik noaniqliklardan hamda sodda til, jargon va sheva elementlaridan xolidir”⁸.

Oddiy so‘zlashuv stili uchun esa betakalluflik bilan erkinlik, oddiy ravishda muomala-aloqa qilish xarakterli xususiyat sanaladi. Unda so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lgan emotsionallik yaqqol sezilib turadi. Chunki oddiy so‘zlashuv uslubi o‘z tarkibiga sodda tilga xos elementlarni, ya’ni u yoki bu darajada tilning adabiy normalariga mos kelmaydigan fonetik, grammatik, leksik-frazeologik hodisalarni kiritish mumkin.

Xulosa qiladigan bo‘lsak A.Shomaqsudovning bu boradagi ishlarida bevosita so‘zlashuv nutqi masalalari talqin etilmaydi, balki ushbu nutqqa xos elementlarning boshqa uslubiy ko‘rinishlar sistemasida uchrovchi elementlari haqida so‘z yuritiladi.

Tilshunos M.Tursunpo‘latov o‘zining “O‘zbek so‘zlashuv nutqi leksikasi” nomali nomzodlik ishida so‘zlashuv uslubi o‘ziga xos leksik xususiyatlarga egaligi tilshunoslikda ushbu leksik guruhlar yuzasidan so‘zlashuv nutqi aspektida kam ishlar amalga oshirilganligi, turkologiyada, jumladan o‘zbek tilshunosligida evfemizmlar, taqlidiy so‘zlar va undovlar, jargonlar, frazeologizmlar, takroriy so‘zlar yuzasidan maxsus ilmiy tadqiqy ishlari olib borilganligi, ammo ushbu ishlarda so‘zlarning mana shu guruhlarini tug‘diruvchi omillar, nutqiy vaziyat va uslublar yuzasidan aytilgan mulohazalar kam darajada ekanligi qayd etiladi⁹. Xolbuki keltirilgan so‘z guruhlarining tug‘ilishi va ishlatilishi aslida so‘zlashuv uslubi, nutqning so‘zlashuv nutqi tili bilan aloqadordir. Shu sababli, bizning fikrimizcha, til lug‘at sostavidagi bir qator leksik guruhlar so‘zlashuv nutqining tabiati bilan bog‘liq holda o‘rganilmog‘i darkor.

So‘zlashuv nutqi jonli, hayotiy va kundalik turmush nutqidir. Unda kishilarning kundalik turmushidagi o‘zaro munosabatlari, bundagi ijobiy, salbiy xususiyatlarida o‘z ifodasini topadi. So‘zlashuv nutqida so‘zlovchilarning psixik

⁸ Shomaqsudov A. So‘zlashuv stili. Toshkent., 1972, 37bet.

⁹ Tursunpo‘latov M. Лексика узбекский разговорной речи Лтор кан. Диссер. Toshkent, 1982y

olami, holati ham mujassamlashgan bo‘ladi. Shu tufayli ham so‘zlashuv nutqida kishilarning o‘zaro munosabati va psixik holatini ifodalovchi so‘zlar ko‘p ishlatiladi. Masalan:

Anorxon. Voy olay, qistamanglar!

Tursunxon. Anorxon, siz ham ko‘pam noz qilmang!

Anorxon. Voy, qirilib ketsin, shu ham noz bo‘lsa! Ma’lumki, tili nutqda moddiy bazaga real kuchga aylanadi. Til sistemasi nutqda reallashadi. Demakki til materialli nutq jarayonida chinakkam ijtimoiy hodisaga aylanadi, o‘zaro aloqa quroli funksiyasini bajaradi.

Tilshunos professor E.Begmatovning qayd etishicha, ushbu nutq til materiallariga ko‘ra adabiy, dialektal “oddiy nutq” yoki qarishliq ko‘rinishlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Ammo deb yozadi E.Begmatov: “Lingvistika” uchun nazariy amaliy jihatdan so‘zlashuv nutqining adabiy so‘zlashuv formasi muhimdir. Adabiy so‘zlashuv nutqi, Masalan: o‘zbek adabiy tilining butun o‘zbekiston hududida tarqalgan adabiy-so‘zlashuv ko‘rinishidir. Shuning uchun adabiy-so‘zlashuv nutqi butun o‘zbekiston bo‘ylab mahalliy shevalarga katta ta’sir o‘tkazayotgan, ammo oz bo‘lsada o‘zi ham mahalliy shevalarning ta’siri fanida ko‘rinayotgan nutqdir.

Xulosa qilib aytganda, so‘zlashuv nutqi masalasi hozirgi tilshunosning dolzarb masalalaridan biridir, desak unchalik xato bo‘lmaydi. Bunga sabab so‘zlashuv nutqining mohiyati, lingvistik talabi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina tomonlar tilshunoslik fanida hali chinakkamiga hal etilgan masala emas. Bu borada ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirmoq darkor.

II bob.

So‘zlashuv nutqi o‘ziga xos nutqiy sistema

Ma’lumki, til sistemasi nutqda reallashadi. Til nutq formasida chinakkam ijtimoiy hodisaga aylanadi va kishilarning o‘zaro aloqa quroli funksiyasini bajaradi.

O‘zbek nutqini, uning jonli jarayonlarini va qonuniyatlarini o‘rganishning ahamiyati unchalik isbotga muhtoj emasdir. Ammo nutqiy jarayon qonuniyatlarini o‘rganish, tadqiq qilish, ilmiy umumlashtirishning muhim ijtimoiy madaniy, aniq amaliy-hayotiy ahamiyatga molekligi shubhasizdir.

Ma’lumki, har doim nutq yakka tarzda yuzaga chiqadi. Uni ayrim, bir kishi amalga oshiradi. Demakki, nutq ma’lum sharoitda yuzaga keladi. Biroq, bu yakka shaxsga xoslik umum til sistemasi qonuniyatlariga tayanadi. Bu nutq (til) tarzida yuz bersada, tilida bir kishi emas, ko‘pchilik butun bir xalq gaplashadi, aniq sharoitda o‘sha yakka shaxs o‘zi uchun emas, birov uchun, ya’ni o‘zgalar bilan gaplashadi.

So‘zlashuv nutqini o‘rgangan ba’zi tilshunoslar fikricha, ushbu nutqiy hodisa, o‘z xususiyatiga ko‘ra nutqning har qanday boshqa ko‘rinishlaridan farq qiladi va alohida tip nutqdir. Tilshunos I.R.Gallerin so‘zlashuv nutqini adabiy tilga qiyosan va unga munosabatiga ko‘ra alohida tip nutq deb ko‘rsatadi.

So‘zlashuv nutqini adabiy tilning funksional stillaridan biri deb yuritish mumkin emasligini bir qator tilshunoslarni so‘zlashuv nutqini alohida tip, alohida tip nutqi deb atash lozimligi fikriga olib kelgan. Bu mulohazani M.V.Panov va bir qator tilshunoslar ham aytgan.

So‘zlashuv nutqini alohida tip nutq deb yuritish uni alohida “tip” deb atash tushunchasiga yaqinlashtiradi. So‘zlashuv nutqi milliy til tarkibidagi “Mustaqil tip” yoki xalqning adabiy tili milliy tilidan boshqa bir tipi emas.

Tilshunoslar til sistemasi haqida gapirganda bu hodisani “nutq tipi” atamasi bilan ataydilar.

Xulosa qilib aytganda, “so‘zlashuv nutqini” “sodda til” yoki “alohida nutq tipi” deb atash hodisasi ancha munozarali hodisadir.

a) Sistema nima?

Tilning ichki qurilishini o'rganishda sistema va struktura tushunchalari keng qo'llaniladi.

Sistema tushunchasi tilshunoslikda tilda mavjud bo'lgan imkoniyatlarni ham o'z ichiga oladi. Bu jixatdan til sistemasi ochiq sistemadir. Boshqacha qilib aytganda, til sistemasining imkoniyatlari kengdir¹⁰.

Til sistemasini tashkil etgan elementlarning o'zaro munosabati va bir-biri bilan bog'lanish qonuniyatlari nihoyatda murakkabdir. Garchi til yaxlit sistema bo'lsa-da, bu sistema ichida o'ziga xos mustaqillikka ega bo'lgan, til sistemasining tarkibiy qismlari bo'lgan yaruslar mavjuddir. Masalan: 1. Fonetik-fonologik yarus. 2. Lug'at yarusi. 3. Grammatik yarus. 4. Nutqiy yaruslar¹¹(So'zlashuv nutqi, adabiy til, badiiy til va boshqalar). Til sistemasi til birliklari (fonema, morfema, so'z, gap) va fonetik—fonologik, leksik grammatikaning bir butunligidan iborat. Aslida tilning har bir bo'lagi, har bir uslubi(adabiy, badiiy, so'zlashuv, idoraviy, publisistik) bir butunlikdan iborat. "Bu butunliklar-uslublarning har biri bir sistemaning a'zosi sifatida tilning boshqa birliklari bilan turli xil munosabatga kirishadi va bu kirishish kishilarga aloqa qilish imkoniyatini yaratib beradi"¹².

Manbalarda qayd etilishicha, til o'zining ichki qurilishiga ko'ra murakkab funksional sistemalar qatoriga kiradi va bu sistemaning eng asosiy maqsadi, insonlarning o'zaro aloqa qilish(so'zlashuv) ehtiyotlarini qondirish uchun xizmat qiladi.

So'zlashuv nutqi nutqning uslubiy ko'rinishlaridan, tilning funksional uslublaridan biri sifatida talqin qilish tilshunoslikda ancha keng tarqalgan. Chunki so'zlashuv nutqi ham til sistemasining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi. So'zlashuv nutqi ham adabiy tilning adabiy nutqiy uslub ko'rinishlaridan birini tashkil etadi. Ushbu uslub M.V.Panovning qayd etishicha, adabiy tilning uslubiy ko'rinishlaridan o'ziga xos materiali, normalangan normasiga egadir. Shu sababli,

¹⁰ Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. "Tilshunoslikka kirish", Toshkent, "O'qituvchi", 1981, 25-bet.

¹¹ Mirzayev M, Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili, Toshkent, 1978, 3-6-betlar.

¹² Azizov O.tilshunoslikka kirish, Toshkent, 1996, 26-bet.

badiiy adabiyotdagi personajlar nutqi beruvchi materiallar so‘zlashuv nutqi materiallaridir. Shu materiallar asosida so‘zlashuv va boshqa nutqqa xos materiallar aniqlanadi, so‘zlashuv nutqining funksional uslublarga munosabati aniqlanadi.

So‘zlashuv nutqini funksional uslublarga tenglashtirish va uni funksional uslublardan biri deb bilish ushbu sistemani rasmiy, ilmiy, publisistik, adabiy uslublar bilan tenglashtiradi¹³. Ammo so‘zlashuv uslubini adabiy uslub bilan tenglashtirish masalasini bir-o‘ylab ko‘rish kerak¹⁴. Chunki so‘zlashuv uslubi og‘zaki shaklda yuz beradi. Adabiy uslub ham yozma, ham og‘zaki shaklga ega. Ikkinchidan, so‘zlashuv nutqida funksional uslublarning barcha turlari o‘z ifodasini topadi, ya’ni so‘zlashuv nutqi ilmiy, ilmiy-siyosiy, ilmiy-publisistik boshqa xil mavzularda ham bo‘lishi mumkin. Keltirilgan asoslarga ko‘ra so‘zlashuv nutqi bilan funksional uslublarni bir deb qarashi emas, bir biridan o‘z xususiyatlariga ko‘ra farqlamoq kerak. Bu borada ishimizning keyingi o‘rinlarida to‘xtalamiz.

So‘zlashuv nutqining “sodda til”(“просторечие”) hodisasiga munosabati masalasi, shaharliklarning nutqi, ya’ni ularning kundalik turmush nutqi(городское бытовая речи) masalasi o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalardandir.

So‘zlashuv nutqiga bag‘ishlangan ishlar ko‘zdan kechirilganda (o‘zbek tilshunosligi e’tiborga olinmoqda) quyidagi uch holat ko‘zga tashlanadi:

1. So‘zlashuv nutqi kundalik turmush nutqi
2. So‘zlashuv nutqi-adabiy tilning ko‘rinishlaridan biri masalasi
3. So‘zlashuv nutqi dialektal nutq ekanligi.

Xulosa qilib aytganda, so‘zlashuv nutqi sistemasi deb yuritilayotgan hodisaning asosiy mohiyati, o‘ziga xos muhim lingvistik bo‘lmagan belgilari, mezonlari atroflicha tadqiq qilinishi kerak.

So‘zlashuv nutqi, og‘zaki nutq va adabiy tilning og‘zaki shakli bilan aloqador terminologik chalkashliklar o‘zbek tilidagi tadqiqotlar uchun ham

¹³ Panov M.V. O razvitii ruskogo yazika(qayta nashr) M., 1985, 7bet.

¹⁴ Mjidov X.S. AKO, Toshkent, 1974, 7bet

tegishlidir. Bu boradagi(terminologik chalkashliklar) mulohazalarni B.O‘rinboyev, E.Begmatovlar ham haqli ravishda ta’kidlaydilar.

Biz malakaviy bitiruv ishimizda so‘zlashuv nutqi o‘ziga xos nutqiy sistema ekanligi borasidagi mulohazalarni rus tilshunoslari M.A. Telenkova, O.B.Sirotnina, A.I.Yefimov, L.N.Barinikova; o‘zbek tilshunoslari E.Begmatov, B.O‘rinboyev, A.Shomaqsudov, M.Tursunpo‘latovlarning bayon etgan mulohazalariga tayangan holda bayon etishga harakat qilamiz.

So‘zlashuv nutqini o‘ziga xos, mustaqil sistema deb atash, uni “mustaqil til” deyilgan fikrlarga yaqinlashtiradi. So‘zlashuv nutqini “mustaqil til”, “Nutqning avtonom tipi” deb yuritish unchalik to‘g‘ri emasligiga biz yuqorida to‘xtaldik. So‘zlashuv nutqini o‘ziga xos, mustaqil sistema deguvchilar, uni “alohida, mustaqil til” ma’nosida emas balki: a) so‘zlashuv nutqi adabiy tilning ko‘rinishlaridan biri; b) o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan adabiy og‘zaki nutq tipi; v) normalangan, adabiy normalarga amal qiluvchi nutq ma’nosida talqin qiladilar.

So‘zlashuv nutqini “alohida til sistemasi” deyilgan fikrga birdan kelingani yo‘q. Bunda yuqorida ham ko‘rib o‘tganimizdek avvalo so‘zlashuv nutqi “turmush tili” “nutq tipi”, “nutq stili”, “nutq formasi”, “funksional stil”, “adabiy tilning kundalik turmushda qo‘llanuvchi xili” kundalik dialektal nutq” kabi talqinlar bilan to‘qnashamiz. So‘zlashuv nutqini funksional uslub sifatida talqin etish va uni kitobiy til (uslub)ga qarama-qarshi qo‘yish asta-sekin uni adabiy til doirasiga yaqinlashtirdi. Ikkinchi tomondan, bunda so‘zlashuv nutqini og‘zaki nutqligi, undagi og‘zakilik xususiyatlarini axtarishga olib keldi. Ushbu hol esa so‘zlashuv nutqini adabiy tilning og‘zaki shakliga yaqinlashtirdi. So‘zlashuv nutqining adabiy til tushunchasiga yaqinlashida uning badiiy adabiyotda keng qo‘llanishi va badiiy adabiyot tilining yadrosini tashkil etish ham muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, so‘zlashuv nutqining adabiy tilga yaqinligi, adabiy tilning funksional ko‘rinishlaridan biri ekanligi isbatlanib bordi. Ammo, yana qaytaramizki, so‘zlashuv nutqini adabiy til ko‘rinishi va uni o‘ziga xos sistema deb atashga birdan-kelingani yo‘q. Chunonchi: D.E.Rozental va M.A.Telenkova so‘zlashuv

nutqini shunday ta'riflashgan: "Разговорная реч. – Особая стилистически однородная функциональная система, противопоставляемая книжной речи как некодифицированная и кадрированная форм литературного языка. Разговорная реч характеризуется особыми условиями функционирования..."¹⁵

So'zlashuv nutqining lingvistik belgilarini ichki va tashqi faktorlarga ko'ra o'rganish keyingi paytlarda so'zlashuv nutqi "o'ziga xos, o'z-o'ziga yetarli bo'lgan sistema" deyilgan mulohazalarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

So'zlashuv nutqini nutq emas "so'zlashuv tili" deyish bilan so'zlashuv nutqi "mustaqil til" deyish tushunchasiga ancha yaqindir. Umuman, so'zlashuv nutqining "mustaqil til"ligi ushbu sistemaning barcha lingvistik xususiyatlaridan kelib chiqilgan holda aytilishi mumkin. Ushbu soha keng rivoj topgan rus tilshunosligida ham so'zlashuv nutqi, asosan, sintaktik nuqtai nazaridan tuzuk o'rganilgan.

So'zlashuv nutqi bo'yicha keyingi davrlarda olib borilgan tadqiqotlar (ko'proq nazariy rejada va sintaksis sohasida) ushbu hodisaning o'ziga xos mustaqil xususiyatlarga egaligini ko'rsatdi. Ushbu xususiyatlar so'zlashuv nutqining: a) yozma nutqdan; b) umuman og'zaki nutqdan; v) bir tomonlama yo'nalishli monologik nutqdan; g) monologik ilmiy-adabiy nutq turlaridan; d) monologik dialektal nutqdan; ye) monologik formadagi "oddiy nutq"("просторечие")dan va nutqning boshqa xil sosial tiplaridan farqlanishini ko'rsatdi. So'zlashuv nutqi gaplashuvchilarning bevosita, dialogik formada so'zlangan betakalluf, erkin nutqidir. Ushbu nutq til materialiga ko'ra adabiy, dialektal, "oddiy nutq" yoki qorishiq ko'rinishlariga ham ega bo'lishi mumkin.

So'zlashuv nutqning adabiy so'zlashuv shakli adabiy deb hisoblansa-da, u adabiy nutqning boshqa tiplaridan bir qator o'lchovlarga javob berishligi nuqtai nazardan farqlanadi. Shu vaqtga qadar tilshunoslik fanida qayd etilgan bunday belgilarni tadqiqotlardan O.A.Laptiyeva shunday umumlashtiradi: "На базе этих параметров возникают соответствующие антономии: реч устная; реч

¹⁵ Д.Е.Розентал, М.А.Теленкова Справочник лингвистических терминов. М., Просвещение», 1972, стр128

писменная; - реч разговорная – реч книжная, реч некоди- фисированния –реч кодифисированная; реч диалогическая –реч манологическая; реч спонтанная- реч подготовленная; реч адресованная –реч неадресованная; реч непринужденная –реч отвественная; реч неофициальная-реч официальная; реч непосредственная-реч опосредственная; реч эмоционально-экспрессивная; реч рациональная; реч автоматизированная-реч свободная реч ситуативно обусловленная-реч не зависящая от ситуации; реч-тематически обусловленная-реч не зависящая от ситуации; реч органическая обиходно- бытовой сферой-реч не зависящая от сферы применения; реч стилистически- реч стилистически не градуирования”

Shunday qilib, so‘zlashuv nutqi o‘ziga bir qator lingvistik va ekstra lingvistik xususiyatlarga javob beruvchi nutqiy holatdir.

2.1. So‘zlashuv nutqi sistemasi –adabiy so‘zlashuv nutqi sifatida

Har bir xalq tilida og‘zaki adabiy-so‘zlashuv tilining paydo bo‘lishi va shakllanishi bir qator murakkab faktorlar, ijtimoiy-siyosiy hamda lingvistik jarayonlar bilan bog‘liqdir.

Ma’lumki, har qanday til uchun asosiy va umumiy funktsiya –bu kommunikativ funktsiyadir. Tilning kommunikativ funktsiyasi uning yashash formalaridan farqlidir. Tilning yashash formalari so‘zlashuv-turmush tili uning territorial va ijtimoiy dialektal tarmoqlari, adabiy til va uning yozma hamda og‘zaki shakllari, shevalar yuqorisida turuvchi koynе(наддиалектальное койне), xalqaro aloqa tili, biror bir e‘zozlangan til, yordamchi sun’iy til, insoniyatning kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan umuminsoniy til va boshqalardir.

Tilning yashash formalari bajaruvchi kommunikativ funktsiyalari muayyan tarixiy davrlarda o‘ziga xos bo‘lgan. Masalan, adabiy til dastlabki davrlarda, asosan, yozma til shaklida yuzaga kelganda o‘sha formada xizmat qilgan. Shu tufayli ham tilshunos Yu.S.Sorokinning qayd etishicha, adabiy tilning dastlabki davrida uning og‘zaki shakli kuchsiz bo‘ladi, natijada kitobiy nutqni og‘zaki

nutqqa qarama-qarshi qo'yish tendensiyasi ham kuchli bo'ladi. Masalan, XVIII asr rus adabiy tili ichida adabiy –og'zaki nutq va uning umumiy normalari hali shakllanmagan bo'lgan, og'zaki tilda so'zlashuv-turmush tili va "oddiy nutq" elementlari kuchlilik qilgan. Ba'zi avtorlar adabiy til tarixini ikkiga: a) yozma-kitobiy va b) og'zaki-so'zlashuv nutqiga bo'ladi. Ammo bu o'rinda tilning yozma va og'zaki shaklga bo'linishi yozma nutq va so'zlashuv nutqi bo'linishidan farqlanishi kerak¹⁶.

Adabiy tilda yozma nutq birinchi shakllanuvchi komponent bo'lganligi tufayli, norma va nutq madaniyati masalalari ham dastlab yozma nutq doirasida olib boriladi.

Adabiy til og'zaki shakli normalarining shakllanishi va tarqalishi qiyinligi adabiy tilning adabiy –so'zlashuv shakli normalarining yuzaga kelishidagi chigalliklarda ham yorqin ko'rinadi. Og'zaki-adabiy nutqning yuzaga kelishi aslida adabiy til og'zaki shaklning mahalliy shevalar ustidan hukmronligini, ulardan yuqori turuvchi normativ hodisaga ("нодиалентальная норма") aylanganini ko'rsatadi. Shu tufayli adabiy-og'zaki nutq, adabiy-so'zlashuv nutqining yuzaga kelishi shevalardan yuqori turuvchi normativ-adabiy vosita ("noddialektal norma yoki koyne")ning paydo bo'lganini ko'rsatadi. Shu tufayli ham adabiy tilning dialektlardan ustun turuvchi umumiy normasi yo'q davrlarda ushbu funktsiyani boshqa bir yot til bajargan hollar ham bo'lgan. Masalan, nemis adabiy tili tarixida bunday vazifani lotin tili bajargan davrlar bo'lgan. Shuning uchun adabiy til o'zining milliy tilga aylanishi davrida o'zining yagona va umumiy normasini yuzaga keltirishga intiladi. Ammo milliy til shakllanishining ilk davrida adabiy tilning og'zaki-so'zlashuv nutqini yuzaga keltirish uchun yetarli ijtimoiy baza bo'lmaydi.

So'zlashuv nutqini mohiyat e'tibori bilan adabiy tilning adabiy so'zlashuv ko'rinishi deb tan olishi har qanday adabiy tilning diaxronik va sinxronik holati bilan aloqador bo'lgan bir qator muammolarni tug'diradi. Masalan, bunday

¹⁶ Сарокин О.С. О Зодачих русского литературного языка. Москва., 1976.

muammolarni o'zbek adabiy tili uchun tadbiq qilinadigan bo'lsa tubandagi masalalarning ko'ndalang bo'lishi turgan gap:

1. O'zbek adabiy tili tarixda, ya'ni 1920-yilga qadar so'zlashuv shakliga ega bo'lganmi?
2. Agarda o'tmishda o'zbek adabiy tilining adabiy-so'zlashuv shakli bor bo'lgan bo'lsa, uning funksional doirasi qaysi darajada edi?
3. Bordi-yu, 1920-yilgacha o'zbek adabiy tilining adabiy so'zlashuv shakli bor bo'lmagan bo'lsa, 1920-yildan keyin qachon paydo bo'la boshladi?
4. Hozirda chin ma'noda, to'liq normalangan o'zbek adabiy-so'zlashuv nutqi bormi? Yoki ushbu shakl hali to'la shakllanib yetilmaganmi? Uning tarqalish doirasi, adabiy-normativlik darajasi qaysi holatda?

Alisher Navoiy prozaik asarlarida XV asr o'zbek adabiy tilidagi neytral-normativ nutqning namunalari saqlangan va bizgacha yetib kelgan.

Hozirgi adabiy-so'zlashuv nutqi, asosan, 1917-1920-yillardan keyin paydo bo'ldi va 30-40-yillar atrofida shakllana boshladi. Tarixda hozirgi ma'noda o'zbek adabiy-so'zlashuv nutqining bo'lmagani va bo'lishi mumkin emasligining ba'zi sabablari umumiy tarzda tubandagilar deyish mumkin:

1. Eski o'zbek adabiy tili va XIX asr oxirlaridagi adabiy til ham hozirgi O'zbekistonning butun territoriyasi bo'ylab bir xilda, keng tarqalmagan edi. Adabiy tildan keng xalq ommasi emas, asosan aholining kamchilik qismi hisoblanuvchi ziyolilar guruhigina foydalangan;
2. O'lkaning feodal tarqoqligi, umumiy territorial birlikning yo'qligi o'zbek adabiy tilining bir xilda va keng funksional rivojiga imkon bermas edi;
3. Aholining asosiy ko'pchiligi savodsiz va adabiy tilni egallash va undan bahramand bo'lish huquqidan mahrum edi;
4. O'zbek adabiy tilining og'zaki, jumladan so'zlashuv shakli elementlari kodifikasiyalanmagan edi. Buning uchun ilmiy-nazariy imkoniyat va amaliy ehtiyoj ham yo'q edi va boshqalar.

Hozirda aholining deyarli ko'pchiligi o'zbek adabiy tilidan bahramand ekanligi, unda gaplashishi fakt. Bu o'zbek adabiy tili og'zaki shaklining

demokratlashgan, ehtiyojlar doirasida kodifikasiyalanganidan darak beradi. Ammo shunga qaramasdan o'zbek adabiy tilining og'zaki shakli, ayniqsa uning adabiy – so'zlashuv ko'rinishi to'la shakllangan deyish qiyin. Chunki o'zbek adabiy so'zlashuv nutqi (hattoki ziyolilar, o'qituvchilar, o'quvchilar nutqida ham) mahalliy shevalar ta'siridan qutila olmagan adabiy tildir. To'g'rirog'i, adabiy til bilan mahalliy sheva elementlarining (ayniqsa, fonetika, leksika borasida) qorishig'idan iborat bir nutqdir. Ushbu nutqni atroflicha xarakterlash bir qator chuqur tadqiqotlarni talab etadi.

Xullas, adabiy-so'zlashuv nutqi ko'p qirrali va murakab hodisadir. Afsuski, ba'zi tadqiqotchilar adabiy-so'zlashuv tilining adabiylik darajasiga juda qat'iy va yuqori talablarni qo'yadi.

Adabiy-so'zlashuv nutqi markaziy va mahalliy joylarda keng xalq ommasining fikrlash quroli sifatida xizmat qilar ekan, u ma'lum darajada, chegarali holda bo'lsa-da, mahalliy shevalar bilan aloqaga kirishadi, natijada turli joylarda adabiy-so'zlashuv tilining ayrim o'zgachaliklar kasb etgan loqal ko'rinishlari yuzaga keladi. Bunday nutqda sheva ta'siri, ya'ni xususiyatlari asta-sekin sistemali-sinxronik xarakter oladi.

Ammo shunga qaramasdan adabiy-so'zlashuv nutqi o'zining umumadabiylik belgisini saqlaydi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, sheva ta'sirida adabiy-so'zlashuv nutqi ko'proq fonetika va leksika sohasida ikkilanadi, bo'rttirib yuborishdan yuzaga kelgan.

Adabiy-so'zlashuv nutq, o'zining funksional doirasi hamda normativ chegaralariga ko'ra adabiy tilga adabiylikka, og'zakilik belgilariga ko'ra esa mahalliy va sosial, dialektlarga yaqinlasha boradi.

Adabiy-so'zlashuv tilining normativ va funksional xususiyatlarini nazariy rejada keng tadqiq qilish keng xalq ommasining kundalik so'zlashuv nutqiy madaniyatini ko'tarishda ulkan amaliy qimmatga ega bo'ladi.

2.2. So‘zlashuv nutqi sistemasi tushunchasi

Ishimizning biirinchi va ikkinchi boblarida qayd etilganidek, til o‘ziga xos sistemalardan iborat bo‘lganidek so‘zlashuv nutqi ham o‘ziga xos sistemalardan iboratdir. Bu sistemalar so‘zlashuv nutqining fonetik, leksik, grammatik ko‘rinishlarini ham o‘z ichiga oladi.

Tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan biri ham tilning ichki qurilishini, ichki mexanizmlarining ishlash prinsiplarini o‘rganishdan iboratki, bu holat bevosita so‘zlashuv nutqi hodisasi, ya’ni bir nutqning (fonetik jarayonining) yuzaga kelishi hodisasi bilan bog‘liqdir. Chunki til o‘z tabiatiga ko‘ra murakkab, ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, uni har tomonlama o‘rganish mumkin.

Ma’lumki, til kishilik jamiyatida bajaradigan funksiyasiga ko‘ra asosiy aloqa quroli, tafakkur vositasi, o‘z tabiatiga ko‘ra ijtimoiy hodisadir. Ichki qurilishi nuqtai nazaridan til ma’lum miqdordagi bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan til birliklarining yig‘indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan sistema ekanligini fonetika darsini boshlash jarayonidan e’tiboran, o‘qituvchi bolalarga tushuncha berishi kerak. Shuning uchun ham til ichki qurilishini o‘rganishda sistema va struktura tushunchalaridan keng foydalaniladi.

Til sistemasi deganda nimani tushunmoq kerak?

Hamma vaqt ham kishilar tilining ayrim belgilari fonemalar, so‘zlar, grammatik vositalar yordamida fikr olmaydilar, aksincha til bir butun sistema sifatidagina mavjuddir. Ona tili va adabiyot o‘qituvchisi ana shu bir butunlikni formalar, morfemalar, so‘zlar yordamida tushuntirgan holda har birining funksiyasini farqlab berishi kerak.

Til o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va bir-birini bo‘lishini taqozo etadigan material birliklarining yig‘indisidan tashkil topgan, o‘ziga xos strukturaga ega bo‘lgan murakkab sistemadir. Til sistemasini tashkil etgan til birliklarining o‘zaro munosabati, bir-biri bilan bog‘lanish qonun-qoidalari tilning strukturasini tashkil etadi. Bu qonun qoidalar 5-sinfдан e’tiboran o‘quvchilarga singdirilib borishi

kerak. Chunki har bir tilning negizini tashkil etgan tovushlar sistemasi lugʻat sostavi va grammatik qurilishi til sistemasini tashkil etuvchi asosiy qismlardir.

Biz oʻqituvchilar oʻquvchilarga til, nutq tushunchalari yaxlit bir sistemadan iborat boʻlsa-da, bu yaxlitlik ichida oʻziga xos mustaqillikka ega boʻlgan, til sistemasining tarkibiy qismlari boʻlgan, fonetik, leksik, grammatik (morfologik, sintaktik) qismlari ham mavjud ekanligini ham tushuntirishimiz shart va zarur. Buning uchun oʻqituvchi fonetika haqida maʼlumot berganda fonetik-fonologik qismning lugʻat qismidan farqli tomonini, lugʻat qismi haqida maʼlumot berganda grammatik qismdan farqli tomonlari haqida maʼlumot bermogʻi kerak.

Til sistemasini tashkil etgan asosiy qismlar quyidagilardan iborat.

1. Fonetik-fonologik qism.
2. Lugʻat qism.
3. Grammatik qism.

Tilning tovush sistemasi nutq tovushlaridan tashkil topadi. Muloqot qilish uchun foydalanadigan soʻzlar va gaplar tovush materiyasida oʻz ifodasini topadi. Tilni tovush sistemasini turli tomondan oʻrganish mumkin. Masalan: Soʻzlashuv nutqi, yaʼni dialektal tomondan, adabiy tomondan, tarixiy tomondan, fizik tomondan.

Ona tili oʻqituvchisi tilning fonetika boʻlishini oʻtish jarayonida birinchi navbatda fonetika tushunchasi bilan fonologiya tushunchasini farqlab berishi kerak.

Fonetika tilshunoslikning inson nutqini ifoda qilish uchun zarur boʻlgan tovushlar, tovush vositalari haqidagi fandır.

Nutq tovushlari va tovush vositalari boʻlgan boʻgʻin, urgʻu, intonatsiya murakkab va koʻp qirrali masalalardir. Bular toʻrt tomondan oʻrganiladi 1) artikulyasion tomondan; 2) akustik tomondan; 3) eshitib his qilish tomondan; 4) fonologik jihatdan. Bunda oʻqituvchi fonetika tushunchasi bilan fonetikaning toʻrtinchi asosiy sohasi hisoblangan fonologiyaga asosiy eʼtiborni qaratish kerak. Sababi bolalarimiz yoshligidanoq tovushlarni soʻzlashuv nutqi nuqtai nazaridan

talaffuz qilib o'rganadilar. Masalan: Do'st/do's, go'sht/go'sh, asir/asr, tok/tok/to'k, bor/bo, kel/ke kabi.

1. Artikulyasion o'rniga ko'ra: p-t//, b-d//, m-k//, f-s//,f-sh// v-l//, a-r.

2. Artikulyasion usuliga ko'ra: p-f// b-z// t-s// u-z// t-sh// k-h// g-g'// q-h.

Demakki, o'qituvchi fonologik jihatdan –bunda nutq tovushlari va tovush vositalarining tildagi so'zlar, so'z formalari, frazalar va gaplarni bir biridan farqlash, ularning ma'nosini kengroq ochish uchun xizmat qiluvchi soha fonologiya ekanligini tushuntirib bermog'i kerak.

Biz pedagogik amaliyot jarayonida shu narsaga amin bo'ldikki, litsey, umum ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari fonetik sistema, fonologik sistema, so'zlashuv nutqi sistemasi haqida yetarli ma'lumotga ega emasdir. Chunki tovushlarni til sistemasida bajaradigan funksiyasi nuqtai nazaridan ham o'rganish kerak. Sababi, tovushlar til sistemasida o'z holicha mavjud bo'lmay, ular so'zlarni hosil qilishda, ularni ma'no jihatidan farqlashda muhim ahamiyatga egadir. Demakki, tovushlarning akustik(fizik) va fizalogik xususiyatlarini (bu bevosita so'zlashuv nutqi tushunchasi bilan bog'liq) tovushlarning nutq sistemasida bajargan funksiyalarini fonologiya fani o'rganishini o'quvchilarga tushuntirishimiz kerak.

III bob.

So‘zlashuv nutqini o‘tish uslubi

Ma’lumki, har bir mavzuni shu jihatdan uslublarni (badiiy, so‘zlashuv, ilmiy, publisistik) o‘tish jarayonida o‘qituvchi tomonidan turli metod (usullar)lar qo‘llaniladi. Buning sababi shundaki, har bir mavzu o‘ziga xos uslubda o‘tishni talab etadi.

Uslublarni o‘tishda o‘qituvchidan notiqlik san’ati talab etiladi. So‘zlashuv uslubi hodisasini o‘quvchilarga tushuntirish uchun o‘qituvchi adabiy tilni, badiiy uslubni, ilmiy, rasmiy uslublarni yaxshi bilishi kerak.

Chunki so‘zlashuv nutqi elementlari ko‘proq badiiy uslubda uchraydi. Shuning uchun ham til va adabiyot o‘qituvchisi badiiy asardagi so‘zlashuv nutqi elementlarini, badiiy uslubga xosdir.

3.1. Akademik litseylarda so‘zlashuv uslubini o‘tish masalasi.

Akademik litseylarning yuqori kurslarida 16 soat “Nutq madaniyati” darsi o‘tiladi. Ushbu soatlardan 2 soati uslublarga ajratilgan. Ona tili va adabiyot fani o‘quvchilarga uslublar haqida ma’lumot berish uchun quyidagilarga e’tibor berishi kerak:

1.Til murakkab ijtimoiy hodisa ekanligi, yozuv paydo bo‘lmagan davrlarda o‘zaro aloqa vositasi faqat so‘zlashuv nutqi zimmasida ekanligini;

2.Yozuv paydo bo‘lgach, so‘zlashuv nutqi hodisasi turli yozishmalarda, xatlar, folklor asarlari va boshqalarda o‘z izini qoldirganligini;


3.Qog‘ozga tushirilgan hamma narsa yozma nutq bo‘lavermaganidek, talaffuzdagi hamma narsaning og‘zaki vositalari ham so‘zlashuv nutqi elementlari bo‘lavermasligini;

4.So‘zlashuv nutqiga xos vositalar: vaziyat boblik, erkin norasmiylik, hozirjavoblik xususiyatlari;

5.So‘zlashuv nutqining estetik va etikaviy tomonlari, nutqda intonasiya, pauza, mimikaning o‘rni masalasi;

6.So‘zlashuv nutqi adabiy tilni to‘ldirib turuvchi nutqiy vosita ekanligi va boshqalar.

O'qituvchi so'zlashuv nutqining boshqa uslubiy ko'rinishlardan o'ziga xosligini tushuntirishdan keyin so'zlashuv nutqi hodisasini badiiy uslubdan publisistik uslubdan, ilmiy va rasmiy uslublardan farqlaydi. Masalan: ushbu uslublarni farqlash uchun quyidagi sxemadan foydalanish mumkin.



Keltirilgan sxemadan foydalangan holda o'qituvchi har bir uslubning o'ziga xos spesifiksiyasini, ya'ni nutq turlari bajaradigan vazifasiga ko'ra farqlanganidek, ularda qo'llanadigan so'zlar sostavi ham kitobiy so'zlar, umumiste'moldagi so'zlar, ilmiy-texnik atamalar, rasmiy ish qog'oziga oid so'zlar, dialektal so'zlar kabi qatlamlarni tashkil etilishi tushuntiradi.

Uslublarga xos qatlamlarning har biri turli tematik guruppalarni o'z ichiga olavermaydi. Bunday leksik guruppalar ichida funksional uslublarning so'zlashuv nutqiga moslashtirilgan turli ko'rinishlarini uchratish mumkin. Bular: kundalik turmushiga doir oddiy, neytral xususiyatli lug'aviy birliklar, dialektizmlar, adabiy so'zlashuv, sodda so'zlashuv bo'yog'i bilan funksiyalanadigan emosional so'zlar-erkalash, qarg'ash, so'kish, jirkish, salbiy va ijobiy ottenkali subyektiv baholash so'zlari; vaziyat talabi bilan ishlatiluvchi professional so'zlar, turli sohalarga oid atamalar, ko'chma ma'noli so'zlar, emosional so'zlar, ekspressiv bo'yoqdor so'zlar, jargo va argolardan iborat so'zlar.

Uslublarning keltirilgan turlari yuzasidan aniq ma'lumot berish uchun quyidagi jadvalga murojaat qilish mumkin.

So'zlashuv uslubi	Badiiy uslub	Publisistik uslub
So'zlashuv nutqiga xoslangan so'zlar	Badiiy uslubga xos so'zlar	
Zarda(jahl), barzangi(haybatli), betamiz(farozatsiz), bo'ydoq (uylanmagan), irqit(iflos), obi-yovg'on(moysiz ovqat), uydurma(yolg'on), tumtoq(chala), tixir(qaysar), uvada, juldir, churuk(eskituski), o'lsa-yitmas(o'ta pishiq), sandiraqlamoq (bekor yurmoq), ezmagurguk(sergap odam), qo'ski(judur, eski kiyimlar) -ataylab paysalga soldi,-dedi cholg'azabdan qo'llari titrab(O.) -Cho'lni kim bilan ochasan, shu tarasha xotining bilanmi?(N.Safarov) –Men senga aytib qo'yayin xotin,-dedi Musurmon. –Shu xotinlarning adi-badisi qon qilib yubordi.(M.I.)	Badiiy asar tili boshqa uslublardan jonliligi, ta'sirchanliligi, sodda nutq vositalarining ko'pliligi, argo va jargolar, piching, kinoya, harakat so'zlar keng qo'llanilishi, chetdan kirgan so'zlarning mavjudligi, so'z qo'llashda chegaraning yo'qligi bilan xarakterlanadi. Ikkinchidan badiiy uslub leksikasi boshqa uslublardan farqli o'laroq kitobiylikka asoslanadi. Badiiy uslub uchun xos bo'lgan vositalar: 1. Kitobiy so'zlar: basharti, barkamol, bardosh, e'tiqod, ezgu, munis, musaffo, mumtoz, saodat, shafqat, charog'on; 2. Arxaik so'zlar: gardun, ochun, kishvor, magar, zabun, alam, aftoda,	Publisistik uslub haqida bolalar yetarli ma'lumotlarga ega bo'lmaganlari uchun bu uslub haqida qisqa ma'lumot berish kerak. “Publisistika” aslida “xalq” so'zidan olingan bo'lib, ijtimoiy xilgil degan ma'noni anglatadi. U ijtimoiy hayotning siyosiy masalalarini vaqtli matbuot, nashrlar orqali ommaviy aks ettiradi. U ijtimoiy hayotning eng qadimgi davrlaridayoq paydo bo'lgan. Dastlabki publisistik elementlar XVI asrning boshlarida g'arb mamlakatlarining feodalizmga kurashi shaklida yuzaga kelgan. 1870 yilda “Turkiston vedomosti” nomi bilan birinchi gazeta, (1983 yilda “Turkiston viloyati gazetasi”) o'zbek tilida chiqa boshlagan Furqat, Isoqxon, Sattorxon,

Bundan tashqari soʻzlashuv nutqida emosional ekspressiv soʻzlar, sodda soʻzlashuv nutqiga oid soʻzlar, kommunikativ munosabatlarni ifodalovchi soʻzlar, jargo va argolar, ekspressivlikni ifodalovchi soʻzlar ham qoʻllaniladi. Bunday holat soʻzning nozikligini roʻyobga chiqaradi.	yalov, ahyor, sorbast, intiq, gʻardor; 3. Koʻchma maʼnoli, emosional obrazli soʻzlar: tarasha koʻz, noma, soʻtak, boʻri, tulki, oh, voy, eha, uhu, attanga, ola, bay-bay kabi; 4. Badiiy nutq taʼsirchan, obrazli leksik jihatdan keng qamrovli uslubdir.	Hakimjonlarning turli masalalar yuzasidan qator maqolalari chop etildi. Boshqa uslublarga qarganda publisistik uslub haqqoniy, rostgoʻy, maʼlum maʼnoda tanqidiy boʻladi. Chunki unda sheʼr, (feʼleton, maqola, xatlar, xabarlar) oʻz oʻrnini olgan boʻladi. Masalan: “Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish-bosh maqsad”, “Fidoiylilik eʼtirofi”, “Muqaddas burch masʼuliyati” kabi. Publisistika mavzu material xususiyatlari jihatidan falsafiy-siyosiy, maʼnaviy-ahloqiy, adabiy-tanqidiy xarakterda boʻladi. Uslub jihatidan baxs-munozarali, tashviqot-targʻibot, satirik koʻrinishlarga ega boʻladi. Shakl xususiyatlari jihatidan esa u voqeaviy-informasion(xabar, reportaj, hisobotlar), ajrimlik jihatdan (maqola, Badiiy, ocherk, hikoya, feʼleton) kabi turlarga boʻlinadi
--	--	--

Ular bu uslub bo'yicha ko'proq ma'lumot olishga qiziqdirlar.

Uslublar (publisistik)bo'yicha gazetadan foydalangan holda kichik xabar, maqola, axborot yozib kelish topshirildi. Sinfdagi bolalar uch guruhga bo'lindi, birinchi guruhdagilarga "Jizzax haqiqati"gazetasi, ikkinchi guruhlarga "Jizzax ovozi" gazetasi, uchinchi guruhlarga "O'zbekiston ovozi" gazetasi materiallaridan foydalanish topshirildi.

Keyingi darsda yozilgan narsalar muhokama qilindi. Dars keskin munozaralar, bahslar, tortishuvlar asosida o'tdi. Darsda biz o'z maqsadimizga erishdik. Bolalar uslublarni bir-biridan farqladilar. So'z qo'llash tartibini tushundilar.

3.2 Dars ishlanmasi

I. Dars mavzusi: Uslublar haqida (Soʻzlashuv uslubi)

II. Darsning maqsad va vazifalari:

- a) Taʼlimiy maqsad: oʻquvchilarga soʻzlashuv uslubi haqida maʼlumot berish;
- b) Tarbiyaviy maqsad: Oʻquvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash;
- c) Rivojlantiruvchi maqsad: Oʻquvchilarning soʻz boyligini oshirish ularni soʻz ustida ishlashga oʻrgatish:

III. Dars jihozi:

Darslik, mavzuga oid plakat, tarqatma materiallar, dialogik matnlar (lentaga yozilgan holatda)

IV. Dars turi: Yangi bilimlar beruvchi.

V. Dars usuli:

Interaktiv

VI. Dars rejasi:

- 1. Soʻzlashuv uslubi haqida maʼlumot.
- 2. Soʻzlashuv uslubining oʻziga xosligi.

VII. Darsning borishi va mazmuni:

1. Tashkiliy qisim.

- a) Salomlashish
- b) Dars shiori
Ona tilim jonu dilim,
Sendan olay chuqur bilim.

c) Davomat.

d) Oʻquvchilarning va xonaning darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

2. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash:

Oʻtilgan mavzu tarqatma materiallar orqali mustahkamlanadi.

3.Uyga vazifani baholashda o‘quvchi daftari yig‘ishtirib olinib baholanadi.



4.Yangi mavzu bayoni:

Oilada, ko‘cha-kuyda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo‘llaniladigan nutq uslubi so‘zlashuv uslubi sanaladi. So‘zlashuv uslubi adabiy va oddiy so‘zlashuv uslublarini o‘z ichiga oladi.

Adabiy til me‘yorlariga qat’iy amal qilingan so‘zlashuv uslubi adabiy so‘zlashuv uslubi, bunday xususiyatga ega bo‘lmagan so‘zlashuv uslubi esa oddiy so‘zlashuv uslubi hisoblanadi.

So‘zlashuv uslubining har ikki turi ko‘pincha dialog shaklida ro‘yobga chiqadi. Ikki shaxsning o‘zaro so‘zlashuvi dialogik nutq sanaladi. So‘zlashuv uslubida so‘zlar ko‘pincha kinoya, piching, qochirimlarga boy bo‘ladi. Bu uslubning yana bir o‘ziga xos xususiyati –erkinligidir.

Quyidagi slayddan foydalaniladi



223- mashq og‘zaki tarzda bajariladi.

224-mashq. Yozma bajariladi. Og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan so‘zlarni ajratib yozadilar.

Men Abdulla Qodiriyga qayin ini bo‘laman, ya’ni u kishining zavjalari Rahbarniso mening opam bo‘ladilar.

VIII. Yangi mavzuni mustahkamlash.

O‘quvchilarga badiiy asardan parcha beriladi va so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlar o‘quvchilar tomonidan aniqlanadi.

-Badbaxt fitna! Qo‘yasanmi, qo‘ymaysanmi, axir? “Hubbil vatani minalimon” deganlar. –“Vatanni sevish imondadir”, axir! Bilmasang bekorda, Vatani yo‘q dunyoda lo‘li, xolos. Meni bevatan deb bildingmi?

So‘fi biroz qizib ham ketdi:

-Bu hovli-joy otangdan qolgani uchun o‘zimniki deysanmi yo? Unday desang, boshput olib, o‘rusvoyning reli (rels)ga tushib, “Hayt!” deb... Makkatulloga jo‘nab qolaman! Hovling boshingdan qolsin, fitna!

IX. Dars yakuni.

Mavzu xulosalanadi. Baholar eshittiriladi. (guruh va yakka tartibda) Faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

X. Uyga vazifa:

226-mashq. Rasm asosida “Do‘stlar davrasida” mavzusida dialogli matn tuzish.

Umumiy xulosalar

O‘zbek so‘zlashuv nutqi, o‘zbek so‘zlashuv nutqi leksikasi, o‘zbek tili madaniyatining rivoji va takomili, bu sohada olib borilgan lingvistik tadqiqotlarning samarali ta’siri, ayniqsa tilning alfaviti, grafikasi, morfologiyasi, matn lingvistikasi, til sistemasining shakllanishida va stabillashuvida yorqin ko‘rinadi.

Ma’lumki, bugunga qadar barcha tillar tilshunosligida bo‘lgani kabi, o‘zbek tilshunosligida ham ko‘proq sheva va dialektlar, badiiy asar tili, o‘zbek tilining morfologiyasini tadqiq qilishga katta e’tibor berildi. Shu tufayli ham o‘zbek tilining morfologiyasi sintaksisi, leksikasi yaxshi o‘rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishimizni yozish jarayonida o‘zbek so‘zlashuv nutqi hodisasi haqida quyidagi xulosaga keldik:

1. Til aloqa jarayonida moddiy bazaga, real kuchga aylanganlik til sistemasi ham nutqda real kuchga aylanadi. Demakki, til aloqa materiali bo‘lsa, nutq aloqa formasidir. Shuning uchun ham tilni til, ya’ni material sifatida emas, nutq, nutqiy jarayon sifatida o‘rganish tilni jonli, hayotiy holda o‘rganishdir. Tilni material sifatida emas, nutq jarayoni sifatida, ya’ni vaziyatbob nutq sifatida o‘rganmoq kerak.

2. O‘zbek nutqini, jonli jarayonlarini va qonuniyatlarini o‘rganish, ilmiy tadqiq qilish, ilmiy umumlashtirishning muhim ijtimoiy-madaniy, aniq amaliy-hayotiy ahamiyatga molekligi shubhasizdir.

3. Nutq va nutqiy qonuniyatlarni o‘rganish tilshunoslik va sosial-lingvistika uchun ko‘p qirrali muammolardan biridir. Ushbu muammoning o‘ziga xos, ulkan tomonlaridan biri so‘zlashuv nutqi hodisasi. So‘zlashuv nutqining funksional uslublarga munosabati, so‘zlashuv nutqining “Sodda til”, “Sodda nutq” tushunchalariga munosabati sozlashuv nutqi sistemasi kabi masalalardir.

4. Ma’lumki, nutq yakka tarzda yuzaga chiqadi. Uni ayrim, yakka bir kishi amalga oshiradi.

Nutq ma’lum bir turmush sharoitida, aloqa jarayonida yuzaga chiqadi. Biroq, bu yakka shaxsga xoslik umumtil sistemasi qonuniyatlariga tayanadi va

uning doirasida bo'lib, uni buzmaydi. Til hayotda yakka nutq(til) tarzida yuz bersada, tilda birgina kishi emas, ko'pchilik butun bir xalq gaplashadi, o'sha bir kishi o'zi uchun emas, birov uchun, ya'ni o'zgalar uchun gapiradi. Ushbu nutqiy faoliyat baravarida o'zbek tilining asrlar davomida rivoj topishiga asos bo'lib kelgan omillardandir.

5. Tildagi ma'lum ma'nodagi terminologik chalkashliklar odatda ma'lum tushuncha haqidagi ayrim mulohazalardagi chalkashliklar shu sohada olib borilgan ishlarning yetarli emasligi tufayli yuz beradi. Ushbu mulohaza o'zbek so'zlashuv nutqi tushunchasiga va shu tushunchaning bir bo'limi bo'lgan so'zlashuv nutqi o'ziga xos nutqiy sistema ekanligi tushunchasiga, so'zlashuv nutqining nutqiy uslub va nutqiy tiplarga munosabati tushunchasiga, so'zlashuv nutqining kundalik turmush nutqi tushunchasiga ham tegishlidir.

Xulosa qilib aytganda o'zbek so'zlashuv nutqi sistemasi hali yetarlicha tadqiq qilinmagan. Chunki so'zlashuv nutqi deb yuritilayotgan hodisaning asosiy mohiyati unga xos muhim lingvistik bo'lgan, bo'lmagan belgilar, mezonlar hali o'zbek tilshunosligida yetarli o'rganilmagan va o'rganilishi kerak bo'lgan sohalardan biridir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Azizov O.A. Tilshunoslikka kirish, Toshkent, 1996, 170-bet.
2. Begmatov E., M. Tursunpo'latov. O'zbek nutqi madaniyati asoslari. Toshkent. "O'qituvchi" 1991, 210-bet.
3. Балақаев М.Б. Диалектные явления в языке художественной литературы. Баку. 1973.
4. Дениеов П.Н. Очерки по русской разговорной реч. Проблемы учебной лексикографии. М. 1987, 35-38-betlar
5. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent. "O'zbekiston", 1995, 269-bet.
6. Karimov I.A. Zamonaviy kadrlar tayyorlashning muhim omillaridir. Xafsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Toshkent. "O'zbekiston", 1991-yil.
7. Костамаров В. Т. О разграничении терминов «Устной» и «Разговорный», «Писменный» и «Книжный» -ВКН: «Вопросы современной филологии» Москва, 1975, 40-45-betlar.
8. Лаптева О.А. Русской разговорная реч. Саратов 1970, 180-bet
9. Ларин Б.А. «О лингвистическом изучении города. Всб: «Русская реч», Москва, 1975, 25-29-betlar
10. Mirzayev M., Usmonov, Rasulov I. O'zbek tili. Toshkent. 1965.
11. Панов М.В. Русская разговорная реч. М., 1985(кайта нашри)
12. Qo'chqortoyev N., Qo'chqortoyeva R. Tilshunoslikka kirish. Birinchi qism. Toshkent. 1986, 220-bet.
13. Sodiqov A. Abduazizov, Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish., Toshkent, "O'qituvchi" 1981.
14. Сиротинина Л.Б. Русская разговорная реч. Москва. 1973.
15. Tursunpo'latov M. Лексика узбекской разговорной речи. А.К.Д. Toshkent, 1982, 88-bet.
16. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1970, 174-bet,

17. Tursunpo‘latov M. Jo‘rayev X. “So‘zlashuv uslubi nima?” Jizzax, 1991, 50-bet.
18. Tursunpo‘latov M. Лексика узбекской разговорной речи. Toshkent., «Fan» 1986, 88-bet.
19. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. Toshkent. 1972.
20. Василева А.Н.Разговорная реч как функциональный стил. Сб: Вопросы стилистики в преподавании руского языка. М., 1987, 50-53-betlar.
21. Xoldarova S.M. Семантика-структурные особенности диалогической речи в современном узбекском языке. Автор. Кан.дис.фил.наук. Toshkent, 1974. 20-bet.
22. Земская Е.А. Русская разговорная реч. Москва, 1978, 200-bet.
23. Земская Е.А. Русская разговорная речб лингвистический анализ и пробасы обучения. Москва., 1979,157-bet
24. O‘rinboyev B.U. O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. Toshkent. 1974, 170-bet.
25. O‘rinboyev B.U. Вопросы синтаксиса узбекский разговорной речи. Автор...уок...уок..ф-н, Toshkent, 1976, 200-bet.
26. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hodjiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. “Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili”. Toshkent. 1980, 340-bet.
27. Shomaqsudov A. So‘zlashuv stili. VKN: O‘zbek tili stilistikasi masalalari. (VKN), № 427, Toshkent, 1972, 8-bet.
28. Shomaqsudov A. O‘zbek adabiy tili stillari haqida. (VKN filologik tadqiqotlar). Toshkent, 1970, 30-36 betlar.

Mundarija.

Kirish.....	3
I.bob. So`zlashuv nutqi tushunchasi.....	9
1.1 So`zlashuv nutqi maxsus tayyorgarliksiz yuzaga keluvchi nutq	10
1.2. So`zlashuv nutqi bevosita yuzma-yuz nutq.....	11
1.3. So`zlashuv nutqi hodisasining o`rganilishi.....	16
1.4. So`zlashuv nutqi hodisasining o`zbek tilshunosligida o`rganilishi.....	20
II.bob. So`zlashuv nutqi o`ziga xos nutqiy sistema.....	25
2.1. So`zlashuv nutqi sistemasi –adabiy so`zlashuv nutqi sifatida.....	30
2.2. So`zlashuv nutqi sistemasi tushunchasi.....	34
III.bob. So`zlashuv nutqini o`tish uslubiyati.....	37
3.1. Akademik litseylarda so`zlashuv nutqi uslubini o`tish masalasi.....	37
3.2. Dars ishlanmasi	44
Umumiy xulosalar.....	48
Adabiyotlar ro`yxati.....	50